Keywords : Language, problem, century, culture, relationship, modern, process

According to Sepir "Language is an integral component of the form of ethnic perception of the world." In the 90s of the XX century, at the intersection of linguistic and cultural paradigms, a new field – linguaculturology – began to appear. The purpose of linguaculturology is "the relationship between culture and the language of consumption, the linguistic and non-linguistic (cultural) content of the units that reflect this process as a whole structure based on modern priorities and cultural views (norms and a system of universal values) [3]. According to V.N Telia, linguoculturology is a branch of ethnolinguistics that focuses on the study and description of the synchronous relationship between language and culture. V.A. Maslova describes linguaculturology in a broader and more accurate way: "The field of linguistics, which emerged at the crossroads of linguistics and cultural studies", "humanitarian subject which studies material and spiritual culture embodied in the national language and reflect in linguistic processes", "an integrated field of knowledge that absorbs the results of research in the field of cultural studies, linguistics, ethnolinguistics and cultural anthropology" [4, p. 9-32]. A. Mamatov and B. Boltaeva defined lingua-culturology as "a scientific and practical study of the national-cultural meaning (semantics), semantic content and nuances of language units, the relationship of language and culture, the problems of expression of national culture in language". Thus, linguo-culturology emerges at the intersection of linguistics and culturology, and is an independent field that studies the linguistic reflection of a nation's culture, the relationship between language and culture. The growing interest in the comparative study of languages from linguacultural point of view has led to the formation of a new direction at the intersection of comparative typology and linguoculturology - comparative linguoculturology. Theoretical foundations of comparative lingvoculturology were developed by .V.V Vorobyev and



1-TOM, 10-SON

described it as follows: "Comparative linguoculturology is a new direction in the practical application of linguoculturology, which studies the processes of interlinguistic communication through the prism of the mother tongue, observes linguistic and extralinguistic content of culture and nation as a holistic structure, focuses on new life of society and the system of cultural values [6,p.15]. The linguist defines the task of this direction as "to identify the similarities and differences in the dialectical influence and development of cultures reflected in two or more languages." As language does not exist separately from culture, so linguistic research is inextricably linked with cultural studies. According to the linguist S.T. Makhmaraimova, any culture is manifested in a language, finds its material shell in language, and develops and changes under the influence of the environment. Cultures of different nations differ in their material and spiritual assimilation of reality [8]. V.V Vorobyev emphasizes that culture is twofold "National (specific) and general (international)." Many linguists associate the expression of culture in a language with cultural symbols or cultural codes. D.S. Khudoiberganova writes that cultural codes are "reflected in linguocultural units such as proverbs, sayings, metaphors, prayers and applause that reflect the figurative thinking of the people." [9]. Phraseological units have been recognized by many linguists as reflecting national culture, national mentality, customs, and history. A.V Kunin states that, "phraseology is a treasure of language. Phraseological units reflect the history of a nation, its culture and the uniqueness of its life". According to V.N Telia, "the phraseological content of a language is a mirror in which a linguocultural society realizes its own national identity". T.Z Cherdantseva wrote that "the expressions of any language are a valuable linguistic heritage that reflects the worldview, national culture, customs and beliefs of the speakers of this language, reflecting their fantasy and history" [12, p.58]. V.G Gak argues that the national identity of phraseologisms is "determined by linking them to the elements of the material or spiritual culture, history, beliefs, customs and natural geography of a particular society. National-cultural specificity phraseological units has recently become a traditional topic in the field of phraseology research. Many studies emphasized that idioms are national and cultural unity of language, accumulating and transferring from one generation to the cultural potential of the people. They exhibit features of every national language, a unique way expresses the spirit and identity of the nation. V.A.Maslova indicates a close relationship phraseological units with background knowledge of native speakers, with cultural - historical traditions of the people speaking this language. In her opinion,



1-TOM, 10-SON

phraseological combinations related subjects attributed symptoms that are associated with a certain view of the world, express their attitude to them and give them a rating. The primary emphasis rests on the consideration of the concepts "linguistic picture of the world", "national linguistic picture of the world" and the problem of interrelation of language and culture. Among multiple problems that modern linguistics studies, studying national – cultural specifics of languages plays an important role. The language is the major way of formation and existence of man's knowledge about the world. Firstly, it is the basis for the development of linguistic picture of the world, one of the deepest layers of the picture of the world. Secondly, language expresses and explicates other pictures of the human world, which enter into the language via special lexicon, introducing the features of a person and his culture². As for the concept "linguistic picture of the world", in modern linguistics it is defined by several linguists such as Pimenova, O.A. Kornilov, Z.D. Popova and I.A. Sternin in different ways. According to M.V. Pimenova, it is "body of knowledge about the world which is reflected in language, and also ways of receiving and interpretation of new knowledge"³. O.A. Kornilov considers that it is "fixation and storage of all complex of knowledge of current language community about the world" By phraseology, we mean the branch of linguistics dealing with stable word combinations characterized by certain transference of meaning. Despite differences of opinion, most authors agree upon some points concerning the distinctive features of phraseological units, such as: 1. the aggregate value of verbal phraseological complex; 2. the individual lexical components of phraseologisms; 3. the literal meaning of the total verbal complex. One more criterion for classification of phraseological units is according to the degree of the national peculiarity of phraseological units. Due to it all phraseological units are divided into three groups: 1. International phraseological units ; 2. Locally unmarked phraseological units; 3. Locally marked phraseological units The most complete definition of researching the concept is given by Russian linguists Z.D. Popova and I.A. Sternin, who consider that "linguistic picture of the world is set of people's representations about reality fixated in units of language at a certain stage of development of the people, imagination about the reality reflected in values of linguistic signs – linguistic partitioning of the world, linguistic collating of subjects and the phenomena..."⁵. So studying various definitions of "linguistic picture of the world", we arrived at a conclusion that "linguistic picture of the world" is a verbal expression of objective reality of a certain language community. "Linguistic picture of the world" is embodied in all national languages, and receives designation "a national



1-TOM, 10-SON

linguistic picture of the world". In turn, "a national linguistic picture of the world" is "national and specific vision of all things in existence which is fixated in lexicon of the corresponding language, where the word "vision" expresses following concepts: logical conception, sensation and estimation, and concept "all things in existence" means not only a real material world, but also all introduced things in it by human mind"⁶. It should be noted that the questions concerning the problem of "national linguistic picture of the world" were made in scientific works of great linguist W. von Humboldt and the formers of theory of linguistic relativity E. Sapir and B. Whorf. According to W. Humboldt's doctrine, "various languages are various world visions. Any language, designating separate subjects, forms a picture of the world for the people speaking in it". The base of a hypothesis of Sapir – Whorf makes belief that human beings are very much at the mercy of the particular language which determines nature of thinking of the person, his behavior and a way of cognition of reality, finally more widely – culture of society. "We see and hear and otherwise experience very largely as we do because the language habits of our community predispose certain choices of interpretation" – writes Sapir ⁷. In other words, the person sees the world as he speaks. Therefore the people speaking different languages see the world differently. Each language reflects reality only in the way inherent in it; therefore, languages differ with their "linguistic pictures of the world.

References:

1. Ashukin N. S. Winged words. - M.: Higher school, 1960.
2. Aleinikova T.V. Phraseologisms with components of anthroponyms in the modern Russian language. - M., 2002.
3. Arutyunova N. D. Language and the human world. - M., 1999.
4. Babkin A. M. Russian phraseology, its development and sources. - L.: Education, 1970.
5. Boldyrev N.N. Cognitive semantics. - Tambov, 2000.
6. Vezhbitskaya A. Language. Culture. Cognition. - M., 1996.



1-TOM, 10-SON

**Жин машинаси ишчи камерасининг конструкцияси ва бошқа
деталларининг тола ажралиш жараёнига таъсир омилларини тадқиқ
қилиш**

Нажмитдинов Шухрат Абдукаримович
Наманган тўқимачилик саноати Институтини
Наманган, Ўзбекистон
najmitdinov_shuxrat@mail.ru

Шарипов Хайрулло Нўмонжанович
доцент

техника фанлар номзоди
Наманган тўқимачилик саноати Институтини
Наманган, Ўзбекистон
sharipov_xayrullo@mail.ru

Аннотация. Маълумки аррали цилиндр пахтани жинлаш жараёнида асосий ишчи органи ҳисобланади. Жин ишчи камерасига келиб тушган пахта хом-ашёси айланиб турувчи арра тишлари билан учрашиши натижасида жинлаш жараёни содир бўлади. Ишчи камерада пахта хом-ашёси ҳам жин арраси каби айланма ҳаракат олиб, тўлиқ туксизланган, қисман туксизланган чигитлардан иборат бўлган массали валик ҳосил қилади. Бу массали валикнинг ишчи камера маркази томон зичлиги ошиб боради. Натижада маълум вақт ўтиши билан ишчи камера ва колосниклар ўртасида ёриқ ҳосил бўлиш ҳисобига туксизланган чигитлар ўз оғирлиги таъсирида пастга томон ҳаракатланади ва жин машинасидан ажралиб чиқади.

Калит сўзлар: Пахта, Ишчи кемера, олдинги фартук, орқа фартук, арра, калосниклар, ишқаланиш, ўғирлик, тезлик

Кириш. Пахтани дастлабки ишлаш жараёнида қўлланадиган технологик жиҳозларнинг узел ва ишчи юзалари юқори сифатли бўлиши, яъни уларнинг юза силлиқлиги 7 класс аниқликда бўлиши лозим.

Олимларимизнинг олиб борган илмий изланишлари ва ўтказган тажрибалари натижалари шуни кўрсатадики, пахтани дастлабки ишлов бериш жараёнида толалар шикастланиши ёки жиҳозларнинг узелларини асосий юзаларида эмас балки айнан бир шаклдан иккинчи шаклга ўтувчи юзаларда содир бўлиши аниқланган, бунга мисол қилиб жинларнинг арра тишларининг қирраларини келтириш мумкин [1].

Методлар. Ҳар хил абразив материаллар ёрдамида жилвирланган арралардан



1-TOM, 10-SON

фойдаланишда ўтувчи юзаларнинг қирра радиуслари кичрайиши натижасида ($r=0,1$ мм) толалар шикастланиши ўсиб бориши кузатилган. [2]

Толаларнинг ишчи юзалар билан ўзаро боғланиши академик Р.Г. Махкамов ва бошқалар томонидан ўрганиб чиқилган ва қуйидаги схема таклиф қилиниб, бу моделнинг назарий натижалари тажрибада тасдиқ топган ва таклиф қилинган схема учун толага таъсир қилувчи контактли босим кучини аниқлаш учун қуйидаги тенглик келтирилган:

$$N_n = \frac{3,24 \cdot k \cdot P \cdot (t \cdot Q \cdot N)^{0,8} \cdot (n \cdot D)^{0,8}}{e^{0,8} \cdot 10^5},$$

Бунда,
$$P_p = \frac{1}{P_a \cdot P_b},$$

$$\delta = P_\delta \cdot \frac{1}{2} \cdot \sqrt[3]{\frac{9}{4} \cdot \eta^2 \cdot E \cdot \kappa \cdot P^2}$$

P – иккита қисилувчи жисм орасидаги кучланиш.

Иزلанишлар натижаларига назар ташлайдиган бўлсак ўрта толали пахта навларининг ўтувчи юзалар билан ўзаро боғланишида айнан тола билан ўтувчи қирра орасидаги контакт зонасида $r_m=0,1$ мм радиусли қиррада $P_0=40-50$ Н/м² контактли босим шароитида толаларни шикастланиши кузатилади.

Ингичка толали пахталар учун рухсат этилган контакт босими 70-90 Н/м² оралиғида жойлашганлиги кузатилган [3].

Юқоридаги катталикларни ва юза силлиқликларини баҳолашда тола ва ишчи органларини ўзаро боғланишларини муҳим томонларини ҳисобга олган ҳолда айнан икки компонентнинг ишқаланишини инобатга олиш лозим.

Толаларнинг қаттиқ жисмларга (ишчи органларга) нисбатан паст механик хоссалари уни шикастланишига олиб келади.

Натижалар. Толаларни чигитдан ажратиш жараёни мураккаб механик жараён бўлиб, арралар, хом-ашё валиги ва колосникли панжара ҳамда чигит тароқларининг мутаносиблигини таъминлаган ҳолатда юз беради. Толалар чигитдан ажралиши учун эса хом-ашё валиги маълум бир зичликка эга бўлиши керак, бу эса ўз навбатида ишчи органларни тез емирилишига сабаб бўлади, шу сабабли арралар ҳар 48-50 соатда, колосникли панжаралар эса ҳар 3-4 ой ичида қайта таъмирланади ёки тўлиқ алмаштирилади.

Чигитли пахтани жинлаш – бу толани чигитдан ажратиш жараёнидир. Чигитли пахтага таъсир принципи буйича жинлаш арралаи ва валиклига бўлинади.



1-TOM, 10-SON

Жинлар иш режимларини тўхтовсиз ва объектив ростлаш зарурлигини исботлаш учун асосий ва технологик характеристикаларни аниқлаш имконини ва уларни бошқариш усулларини бошланғич тадқиқотлари ўтказилган.

Аррали жин ишчи камерасининг унумдорлиги назарий йўл билан куйидаги формуладан аниқланади:

$$П = \frac{Q}{\tau_{yp}} A \quad (2.10)$$

бунда $П$ – ишчи камерасининг тола бўйича унумдорлиги;

Q – хом-ашё валигининг оғирлиги;

τ_{yp} – ишчи камерасида тола ва чигитни ўртача бўлиш вақти;

A – жинлаш жараёнининг ўзгармас характеристикаси.

(2.10) формуладан кўринадики, ишчи камерасининг унумдорлигини хом-ашё валиги оғирлигини ошириб ёки ишчи камерасида тола ва чигитни ўртача бўлиш вақтини камайтириб ошириш мумкин. Лекин хом-ашё валиги оғирлигини оширилиши камеранинг кўдаланг кесим юзасини катталаштиришга олиб келади. Натижада хом-ашё валигини ишчи камераси деворларига қўшимча ишқаланиш кучлари ҳосил бўлади, бу эса уни ҳаракатини секинлаштиради.

Жинлаш жараёнида чигитли пахтадан ажралаётган тола ва чигит сифатининг аниқловчи факторлари ичида энг муҳими бу хом-ашё валигининг зичлигидир. Левкович Б.А., Байдюк П.В., Роганов Б.И., Гулидов Н.Г., Тиллаев М.Т., Фазилдинов С., Худайкулов Н.Х., Усманов Х.С., Сафаров Н.М. томонларидан ўтказилган аррали жинлаш соҳасидаги тадқиқотлар кўрсатадики, хом-ашё валигининг зичлиги ортиши билан тола ва чигитнинг сифат кўрсаткичлари ёмонлашади [4].

Жинлаш жараёнида хом-ашё валигининг массаси ва зичлиги ўзгарувчан бўлиб ишловга берилаётган чигитли пахта ва чиқаётган жинлаш маҳсуллари бўлган чигит ва тола миқдорлари орасидаги динамик мувозанат билан белгиланади. Мазкур динамик мувозанат жинлаш жараёни бошланишидаги тахминан 15 минут давом этадиган юргизиш вақти давомида оператор томонидан ўрнатилади. Технологик жараён давомида динамик мувозанатга таъминлашнинг тасодикий ўзгаришлари, тишларнинг ўтмаслашуви каби



1-TOM, 10-SON

омиллар таъсирида жиннинг жинлаш қобилиятининг пасайиши, чигитли пахта таркибидаги, физик ва технологик параметрларидаги ўзгаришлар, яъни намлик, ёт қўшилмалар миқдори ва таркибининг ўзгариши натижасида қайишқоқлик ва ишқаланиш кучининг ўзгариши тўхтовсиз таъсир қилиб, мувозанатни бузади. Бу мувозанатнинг бузилиши жиннинг хом-ашё валиги зичлигини ўзитекислаш имконияти доирасида бўлганида тола ажратиш жараёни янги режимга ўтиб барқарорлашади, акс ҳолда технологик жараён бузилади ва оператив чора кўрилмаганда хом-ашёнинг камерада тикилиб қолиши рўй бериши мумкин. Бунинг олдини олиш учун кўриладиган чоралар ҳолатнинг характери ва ривожланиш жадаллигига қараб таъминотни камайтириш, уни тўхтатиш ва охириги чора сифатида жинни тўхтатиш ва хом-ашё валигини ағдариш ва технологик жараённи бошқатдан бошланиши бўлиши мумкин [5].

Хулоса. Жиндаги таъминлаш ва чиқариш орасидаги динамик мувозанатни ўзгартирувчи юқорида келтирилган омилларнинг барчасини оператив назорат қилишнинг техник, иқтисодий ва технологик мақбул усуллари мавжуд эмас. Шунинг учун хом-ашё валигининг массаси ва зичлигининг ўзи билан иш кўришга тўғри келади. Аммо хом-ашё валигининг зичлигини оператив назорат қилиш учун яратилган механик, электромеханик ва электрон сезгич воситаларнинг ҳеч қайсиниси сезгирлик, аниқлик, ишонччилик каби энг зарур технологик талабларга тўла жавоб бермайди ва шунинг учун амалда қўлланилмайди. Баъзи илмий тадқиқотларда тасдиқланган ишлаб чиқариш тажрибасига мувофиқ хом-ашё валигининг зичлиги оператив ҳолатда амалда аррали цилиндр электромотори истеъмол қуввати ёки унинг статор юклама токи катталиги бўйича баҳоланади [6]. Аммо хом-ашё валиги зичлиги ва электромотор статори юклама токи орасидаги боғланишнинг миқдор ва сифат кўрсаткичлари илмий тадқиқотларда ўз ифодасини топмаган.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Madumarov Sanjarbek Rustamjonovich, Jurayev Yuldashon Yunuskhan Ugli, Yuldashev Khasanboy Sulayman o'g'li, GENERAL INFORMATION ON THE IMPORTANCE OF FEEDSTOCK DENSITY AND SPEED IN THE FIBER SEPARATION PROCESS, ACADEMIC RESEARCH IN MODERN SCIENCE, International scientific-online conference, October 20, 2022, <https://doi.org/10.5281/zenodo.7229260>
2. Samad S.Azimov, Ibrohimjon T.Tursunov , Khasanboy S.Yuldashev, DEVELOPMENT OF THE DESIGN OF A FEEDER OF VIBRATION ACTION



1-TOM, 10-SON

FOR SUPPLYING COTTON SEEDS TO LINTER MACHINES Proceeding IX International Conference «Industrial Technologies and Engineering» ICITE – 2022, Volume IV M. Auezov South Kazakhstan University, Shymkent, Kazakhstan December 09-10, 2022

3. Yuldashev Khasanboy, Komiljon Abduraximov, Maftuna Inamova, Kamoldin Mirgulshanov, Study Of The Process Of Cleaning Seedcotton INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND CURRENT RESEARCH CONFERENCES “SCIENCE, EDUCATION, INNOVATION IN THE MODERN WORLD” CONFERENCE DATE 15-10-2021, Pages:44-50. <https://doi.org/10.37547/isrc-intconf14>

4. Yuldashev Khasanboy , Maftuna Inamova, Mansur Qobilov, Abrorbek Abduxaliqov, Effect Of Moisture Continent In The Process Of Storing, Drying And Cleaning The Seed Cotton. INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND CURRENT RESEARCH CONFERENCES “SCIENCE, EDUCATION, INNOVATION IN THE MODERN WORLD” CONFERENCE DATE 15-10-2021, Pages:34-39. <https://doi.org/10.37547/isrc-intconf14>

5. Sarimsakov Olimjon Sharipjanovich, Kurbanov Dilmurod Maripjanovich, Yo'ldashev Xasanboy Sulaymon O'gli, Jurayev Yo'ldashxon Yunusxon O'g'li, INVESTIGATION OF LOSING FIBER DURING CLEANING COTTON. «Zamonaviy dunyoda amaliy fanlar: muammolar va yechimlar» nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya, May 18, 2022. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6559924>

6. Sharipov Xayrullo Numonjanovich, Yo'ldashev Xasanboy Sulaymon O'gli, Jurayev Yo'ldashxon Yunusxon O'g'li, Urinboyev Bekzod Baxtiyor o'g'li, “RESEARCH OF LOSING FIBER CLEANER TECHNOLOGIES AND FOREIGN LINT CLEANER TECHNOLOGIES. RESEARCH OF LOSING FIBER CLEANER TECHNOLOGIES AND FOREIGN LINT CLEANER TECHNOLOGIES”. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6559910>

7. Sarimsakov Olimjon Sharipjanovich, Yo'ldashev Xasanboy Sulaymon O'gli , Sharipov Xayrullo Numonjonovich, Madumarov Sanjarbek Rustamjonovich, INVESTIGATION OF SEPARATION OF USABLE FIBERS ADDED TO CONTAMINANTS DURING CLEANING COTTON “O‘ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR” JURNALI 20-MAY, 2022-YIL

8. Sulaymonov Abror, Inamove Maftuna, Yuldashev Khasanboy, THEORETICAL STUDIES OF THE NATURE OF THE INTERACTION OF COTTON SEEDS IN THE GAP BETWEEN THE AGITATOR BLADE AND THE SAW CYLINDER, EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH. Volume





1-TOM, 10-SON

2 Issue 11, October 2022 ISSN 2181-2020 Online: 18TH October 2022. Pages: 666-672. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7218857>

9. Jurayev Yuldashhon Yunusxon ugli, Yuldashev Khasanboy Sulayman ugli, Tuhktaev Sherzod Solijanovich, INVESTIGATION OF FIBER LOSS IN IMPURITIES FROM THE SS-15A SEPARATOR. EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH. Volume 2 Issue 11, October 2022 ISSN 2181-2020. Pages: 425-431. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7193675>

10. Yo'ldashev Xasanboy Sulaymon o'g'li, Qurbanov Dilmurod Maripjanovich, Maxmudova Gulshanoy Odiljon Qizi, INVESTIGATION OF FOREIGN LINT CLEANING SYSTEM TECHNOLOGIES. PEDAGOGLAR legal, medical, social, scientific journal, Pages: 151-161. <https://doi.org/10.5281/zenodo.5813657>

11. Yo'ldashev Hasanboy Sulaymon o'gli, Xoshimov O'tkirbek Xakimjon o'gli, O'rinboyev Bekzod Baxtiyor o'gli, STUDY OF CLEANING PROCESSING OF SEED COTTON IJODKOR O'QITUVCHI ILMIY-USLUBIY JURNAL 5 NOYABR / 2021 YIL / 12 – SON. Pages: 209-213.

12. Sarimsakov Olimjon Sharipjanovich. Yo'ldashev Xasanboy Sulaymon O'gli, Sharapov Xayrullo Numonjonovich, Madumarov Sanjarbek Rustamjonovich, INVESTIGATION OF SEPARATION OF USABLE FIBERS ADDED TO CONTAMINANTS DURING CLEANING COTTON O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. 20.05.2022. Pages: 448-455



1-TOM, 10-SON

Пахта хомашёсини ташувчи ҳаводан ажратиш олиш жараёнини ресурс тежамкор усулда такомиллаштириш

Нажмитдинов Шухрат Абдукаримович

Наманган тўқимачилик саноати Институту

Наманган, Узбекистан

najmitdinov_shuxrat@mail.ru

Шарипов Хайрулло Нўмонжанович

доцент

техника фанлар номзоди

Наманган тўқимачилик саноати Институту

Наманган, Узбекистан

Аннотация

Мазкур мақола иш жараёнида сепараторнинг ишчи камерасига пахта ҳаво оқими билан кириб келиши ве ҳаводан ажралиш жараёнини амалий ўрганиб унга янги конструкция ишлаб чиқилиб ва амалда синов ишлари олиб борилиб, янги конструкцияни моделлаштирилган. Шу конструкцияни яратиш ишлари моделлаштирилиб амалий ишлар баён этилган. ишчи камерасидаги ўзгаришлар ва тикилган пахтани шикастланиши, бошқа ҳолатлар ўрганилиб унга ечим топилган

Таянч сўзлар: сепаратор, ишчи камера, сидирғич, тўрли юза, вакуум клапн, ишқаланиш кучи, оғирлик кучи.

Кириш. Иш жараёнида сепараторнинг ишчи камерасига пахта ҳаво оқими билан кириб келади. Асосий қисми сепараторнинг ишчи камерасида тўғри ҳаракатланиб, унинг деворларига урилади, ўз оғирлиги таъсирида вакуум-клапанга келиб тушади [1]. Қолган қисми тўрли сиртга урилади. Доира шаклдаги тўрли сиртлар сепаратор ишчи камераси ён томонларига ҳаво оқими йўлига ўрнатилган. Пахтанинг маълум бир қисми бу юзаларга ёпишиб қолади. Тўрли юзадан пахтани эластик сидирғич ёрдамида ажратиш олинади. [2]

Тўрли сиртдан пахта бўлакчасини ажратиш олиш пахтанинг сидирғич юзаси бўйлаб радиал ҳаракатининг юзага келиши сабабли амалга ошади. Маълумки, ҳаво оқими пахта бўлакларини тўр юзасига P_x куч билан сиқиб туради. Айни шу вақтда ушбу бўлакларни тўрли сиртдан ажратиш олиш учун сидирғич томонидан N_c бўйлама куч ҳосил қилинади (Madumarov, Jurayev, & Yuldashev, 2022).

Шундай қилиб, пахта бўлаклари тўрли юзада N_c ва P_x кучлар таъсирида бўлади. Сидирғич томонидан ҳосил қилинадиган N_c кучнинг миқдори валга




1-TOM, 10-SON

яқинлашган сари камайиб боради. Сидиргичнинг вал билан уланган жойида у минимал қийматга эга бўлади [4]. Бу эса пахтани тўрли юзадан ажратиш олишга етарли эмас. Узатиш пайтида сепараторда тез-тез пахтанинг тўрли юзада тўсилиб қолиш ҳоллари кузатилади. Бу ҳолат босимнинг камайишига ва кейинчалик сепараторда пахтанинг тикилиш ҳоллари юз беришига сабаб бўлади. Пахтани сепараторнинг тўрли юзасидан сидиргич ёрдамида ажратиш олиш пайтида вал атрофида хомашё ўрамини пайдо бўлади. У секин-аста катталашиб бориб, оқибатда бутун юзани тўсиб қўяди. Бунинг оқибатида тўрли юзани қўл билан тозалашга тўғри келади [5].

Материал ва методлар. Назарий таҳлиллар натижасида пахта ўрамининг ҳосил бўлиши сабабларини аниқлаш имкони пайдо бўлди ва уни йўқотиш борасида аниқ тавсиялар ишлаб чиқилди (Sarimsakov, Kurbanov, Yo'ldashev, & Jurayev, 2022).

Пахта бўлагини сепараторнинг тўрли сирти бўйича бир хил бурчак тезликда айланувчи материал нукта деб оламиз (2.3-расм).



1-расм. Сепараторнинг доира шаклидаги тўрли сиртида жойлашган пахта бўлагига таъсир қилаётган кучлар схемаси

1-пахта бўлакчаси, 2-сидиргич, 3-тўрли сирт, R1-сидиргич валининг радиуси, R2-доира шаклидаги тўрли сиртнинг радиуси, N_c-сидиргичнинг уриладиган кучи, F_{шк}- ишқаланиш кучи, F_M-марказдан қочма куч, m-пахта бўлагининг массаси, q-эркин тушиш тезланиши, ω-сидиргичнинг бурчак тезлиги, t-вақт, r- пахта бўлакчасининг жойлашиш нуктасидаги бошланғич радиуси.



1-TOM, 10-SON

Пахта бўлакчасининг кутб координаталар системасидаги ҳаракати тенгламаси қуйидагича кўринишда бўлади:

$$mr^2\ddot{\phi} = rN - fP_x \frac{r^2\dot{\phi}}{\sqrt{\dot{r}^2 + r^2\dot{\phi}^2}} - mg \cdot r \cos \phi \quad (1)$$


(1) тенгламадан $\phi=0$ да сидиргичнинг пахтага урилиш кучи N ни, аниқлаймиз:

$$N = mg \cos(\omega t + \phi) f_1 P_x \frac{r\omega}{\sqrt{\dot{r}^2 + r^2\dot{\phi}^2}} \geq 0 \quad (2)$$

(1) дифференциал тенгламани компьютерда Рунге-Кутта усулида, $t=0$ бўлганда $r=r_0$; $r=0$ бўладиган шартларда интеграллаб, сидиргичнинг бир хил бурчак тезлигида тўрли сирт бўйлаб пахта бўлакчаси билан бирга ҳаракатини ифодаловчи траекторияларини оламиз (2-расм).

$$m\ddot{r} = r^2 m \dot{\phi} - mg(\sin \phi + f \cos \phi) - f_1 P_x \frac{\dot{r} + fr\dot{\phi}}{\sqrt{\dot{r}^2 + r^2\dot{\phi}^2}} \quad (3)$$

2-расмга кўра сидиргичнинг доимий бурчак тезлигида r_0 ва ϕ_0 нинг турли қийматларида пахта бўлакчаси билан бирга ҳаракатини ифодаловчи траекторияси тасвирланган.



2-расм. Сидиргичининг тўрли юза бўйлаб ҳаракатини ифодаловчи траекторияси (ҳар хил радиусда, 8 та нуктада).

Тадқиқот натижалари. Бундан ташқари схема таҳлилидан қуйидагилар аниқланди: ҳар бир эгри чизиқ $t=t_0$ да сидиргич томонидан таъсир қилувчи куч




1-TOM, 10-SON

N нолга тенглашади. Бу нуқталарнинг геометрик жойлашиши B эгри чизиғини ҳосил қилади. Бу эгри чизик орқали пахта бўлаги бир вақтнинг ўзида радиал ва уринма йўналишларда ҳаракат ҳосил қилади. Бу (3) тенглама орқали ифодаланadi. Буларни интеграллаш урилиш кучи нолга тенг вақтда, (3) тенглама ҳам r нинг барча қийматлари учун $\varphi=180$ ва $P_x=0$ қўшимча шартда интегралланади. Пахта бўлагининг траекторияси ва эгрилиги пунктир чизиклар ёрдамида кўрсатилган (Sharipov, Yo'ldashev, Jurayev, & Urinboyev B B., 2022).

Эгри чизикларнинг солиштирма таҳлили шуни кўрсатадики, тўр юзасидаги босим нолга тенг бўлган қисмида пахтанинг тўла ажралиши таъминланиши мумкин ва тўрли юзада пахта тикилиб қолиши олди олинади. Шунингдек, бу траектория чизиклари шуни кўрсатадики, агар, тўрли сиртда шу траекторияларга мос ўйиқлар ҳосил қилинса, уларнинг ҳаракатига қаршилик кескин пасаяди. Шу нуқтаи-назардан, сепаратор тўрли сиртини пўлат сим ёки тасмадан марказдан радиал йўналишда кенгайиб борувчи спирал шаклида шакллантириш фояси туғилди ва шунга асосланган техникавий ечим ишлаб чиқилди [8]

Тадқиқот натижалари таҳлили. 3-расмда ушбу техникавий ечим асосида ишлаб чиқилган спираль шаклидаги тўрли сиртга эга бўлган сепаратор схемаси келтирилган.



3-расм. Спираль шаклидаги тўрли сиртга эга бўлган сепаратор

1-кирувчи қувур, 2-ишчи камера, 3-крестовина, 4-тўрли сирт, 5-вал,



1-ТОМ, 10-СОН

6-сидиргич, 7-ҳаво қувури, 8-вакуум-клапан

Сепараторга пахта кириш қувури¹ орқали киради. Цилиндрсимон ажратиш камераси ² нинг икки ён томонида крестовина ³ га маҳкамланган тўрли сиртлар ⁴ бўлиб, улар спирал шаклида ўралган пўлат сим ёки тасмадан ҳосил қилган ва ⁵-валга тангенциал равишда ўрнатилган. тўрли сирт ортида ҳаво камераси бўлиб, у сўрувчи қувур ⁷ уланган. Тўрни пахтадан тозаловчи сидиргич ⁶ вал билан қўшилиб, айланиш имкониятига эга бўлиб, у айланиш йўналишида узунлиги ва кўндаланг кесими бўйлаб спирал равишда эгилган. Сидирч ⁶ ўзгарувчан кенгликда ва тўрли сирт атрофига қараб ортиб борувчи эгрилик радиуси билан ясалган [9].

Шунингдек, сепараторнинг паст томонида қанотли барабан ⁸ (вакуум клапан) ўрнатилган бўлиб, у пахтани ишчи камерадан ташқарига чиқаришга хизмат қилади. ⁶ қирғични тайёрлаш штамплаш ёки қуйиш йўли билан амалга оширилади, сўнгра унинг ёйсимон эгилган юзасига эластик материал ўрнатилиши мумкин. Тўрли сиртини думалоқ диаметри $d = 3-4$ мм бўлган симдан ёки ишчи томони силлиқланган тасмадан тайёрлаш мумкин [10] [11] (Yuldashev, Inamova, Qobilov, & Abduxaliqov, 2021) (Yuldashev, Abduraximov, Inamova, & Mirgulshanov, 2021).

Хулосалар. Бунда, тўрли дискни тайёрлаш осон, аммо унинг мустаҳкамлиги пастроқ бўлади ва мустаҳкамликни таъминлаш учун диска унинг орқа томонидан қўшимча равишда радиал стерженлар пайвандлаш керак бўлади. Шунда, дискнинг ишончли ишлашига эришилади. Тўрли сиртни диаметри катта бўлган симдан тайёрлаш ҳам мумкин, аммо бунда унинг фойдали юзаси камаяди. ушбу юқаридса келтирилган конструкциялар ресурс тежамкор усулда ясалган бўлиб, маҳсулотни ясалиш нархи пасайган ва чидамлилиги сезиларли даражада оширилган. Олиб борилган илмий ишлар натижасида аниқ хулосалар келтириш керакки, ушбу моделдаги ускуналар пахта хомашёсини хаводан ажратиш ва қисман тозаланашига ҳам эришилган.



Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

- [1] X. T. Axmedxodjaev, D. A. Adashboyev, X. S. Yo'ldashev and S. S. To'xtaev, "INVESTIGATION OF FOREIGN LINT CLEANING SYSTEM," in *"Paxta to'qimachilik klasterlarida xomashyoni chuqur qayta ishlash asosida maxsulot ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning iqtisodiy , innovatsion, texnologik muammolari va xalqaro tajriba"* xalqaro ilmiy konferensiya, Namangan, Uzbekistan, 2022.
- [2] I. D. Madumarov, O. X. Xoshimov, A. T. Qurbanov and X. S. Yo'ldashev, "STUDY OF CLEANING PROCESSING OF SEED COTTON IN FOREIGN," in *"Paxta to'qimachilik klasterlarida xomashyoni chuqur qayta ishlash asosida maxsulot ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning iqtisodiy , innovatsion, texnologik muammolari va xalqaro tajriba"* xalqaro ilmiy konferensiya, Namangan, 2022.
- [3] S. R. Madumarov, Y. Y. Jurayev and K. S. Yuldashev, "GENERAL INFORMATION ON THE IMPORTANCE OF FEEDSTOCK DENSITY AND SPEED IN THE FIBER SEPARATION PROCESS," *ACADEMIC RESEARCH IN MODERN SCIENCE, International scientific-online conference*, vol. 8, no. 15, pp. 55-59, 20 October 2022.
- [4] Sarimsakov O. SH., Aerodinamika va Pnevmotransport, Namangan: "Namangan" Nashiryoti, 2021, pp. 98-116.
- [5] Sarimsakov O. SH., Paxtani pnevmotransportga uzatish va xavo yordamida tashish jarayonini takomillashtirish, Namangan: "Namangan" nashiryoti, 2018, p. 40.
- [6] O. S. Sarimsakov, D. M. Kurbanov, X. S. Yo'ldashev and Y. Y. Jurayev, "INVESTIGATION OF LOSING FIBER DURING CLEANING COTTON," in *Zamonaviy dunyoda amaliy fanlar: muammolar va yechimlar*, Uzbekistan, 2022.
- [7] X. N. Sharipov, X. S. Yo'ldashev, Y. Y. Jurayev and Urinboyev B. B., "RESEARCH OF LOSING FIBER CLEANER TECHNOLOGIES AND FOREIGN LINT CLEANER TECHNOLOGIES," in *Zamonaviy dunyoda amaliy fanlar: muammolar va yechimlar*, Uzbekistan, 2022.



1-TOM, 10-SON

- [8] A. Sulaymonov, M. Inamova and K. Yuldashev, "THEORETICAL STUDIES OF THE NATURE OF THE INTERACTION OF COTTON SEEDS IN THE GAP BETWEEN THE AGITATOR BLADE AND THE SAW CYLINDER," *EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH*, vol. 2, no. 11, pp. 666-672, 15 May 2022.
- [9] I. Tursunov, X. S. Yuldashev and O. G. ' . Madiyarov, "ANALYSIS OF CHANGES IN AIR PARAMETERS IN A COTTON SEPARATOR," in *"Paxta to'qimachilik klasterlarida xomashyoni chuqur qayta ishlash asosida maxsulot ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning iqtisodiy , innovatsion, texnologik muammolari va xalqaro tajriba"* xalqaro ilmiy konferensiya, Namangan, Uzbekistan, 2022.
- [10] Yo'ldashev X. S, "INVESTIGATING OF MOISTURE CONTENT IN STORING, DRYING AND CLEANING THE SEED COTTON," in *"Paxta to'qimachilik klasterlarida xomashyoni chuqur qayta ishlash asosida maxsulot ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning iqtisodiy , innovatsion, texnologik muammolari va xalqaro tajriba"* xalqaro ilmiy konferensiya, Namangan, Uzbekistan, 2022.
- [11] X. S. Yo'ldashev, O. X. Xoshimov and B. B. O 'rinboyev, "STUDY OF CLEANING PROCESSING OF SEED COTTON," *Ijodkor O'qtuvchi*, vol. 5, no. 12, pp. 209-213, 13 10 2021.
- [12] K. S. Yuldashev, M. D. Inamova, M. A. Qobilov and A. A. Abduxaliqov, "Effect Of Moisture Continent In The Process Of Storing, Drying And Cleaning The Seed Cotton," in *SCIENCE, EDUCATION, INNOVATION IN THE MODERN WORLD*, USA, 2021.
- [13] K. S. Yuldashev, K. A. Abduraximov, M. D. Inamova and K. A. Mirgulshanov, "DEVELOPMENT OF THE DESIGN OF A FEEDER OF VIBRATION ACTION FOR SUPPLYING COTTON SEEDS TO LINTER MACHINES," in *SCIENCE, EDUCATION, INNOVATION IN THE MODERN WORLD*, USA, 2021.
- [14] А. Гробер, Закономерности формирования вероятностных характеристик длины хлопкового волокна в процессе джинирования, Uzbekistan: Хлопковая промышленность, 1970, pp. 172-200.
- [15] Г. Мирошниченко, Основы проектирования машин первичной обработки хлопка, Uzbekistan: «Машиностроение», 1972, pp. 50-62.





1-ТОМ, 10-SON

- [16] А. У. Саримсаков, "ПАХТАНИ ДАСТЛАБКИ ИШЛАШ ТЕХНОЛОГИЯСИДА ЖИН МАШИНАСИНИНГ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШНИ НАЗАРИЙ ВА АМАЛИЙ ЙЎЛЛАРИ БИЛАН АСОСЛАШ," Диссертация на соискание ученой степени кандидата технических наук., Namangan, 2017.
- [17] А. А. Умаров, *Тола сифатини яхшилаш мақсадида аррали жинни таъминлаш жараёнини такомиллаштириш. Техника фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертация.*, Наманган: Наманган., 2018 й, pp. 77-95.
- [18] Х. Т. Ахмедходжаев, А. М. Салимов and Т. О. Туйчиев, "Табиий толаларни дастлабки ишлаш технологияси", Наманган: "Наманган" наширёти, 2020, pp. 102-120.
- [19] Sarimsakov O. SH., *Paxtani uzatish va pnevмотransport yordamida tashish jarayonlarini nazariy asosalari*, Namangan: "Usmon Nosir Media" nashiryoti, 2021, pp. 35-50.



1-ТОМ, 10-СОН
ЗАҲИРИДДИН МУҲАММАД БОБУРНИНГ «БОБУРНОМА»
АСАРИДАГИ АЙРИМҲАРБИЙ АТАМАЛАР ҲАҚИДА ТУШУНЧАЛАР
ВА УЛАРНИНГ МОХИЯТИ .

Нуров Арслон

Ўзбекистон Миллий Университети Тарих йўналиши магистри

Аннотация. Мақолада буюк шоҳ ва шоир Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг “Бобурнома” асарида учрайдиган айрим ҳарбий атамалар ва уларнинг моҳияти очиб берилган. Бобурнинг жанг санъати, қурол-аслаҳалари асарда қачон ва қайси жангда қўлланилганлиги мақолада ёритиб берилган. Шунингдек, “Бобурнома” асарининг қомусий асар эканлиги, балки унда тарихий, географик, этнографик маълумотлар билан биргаликда ҳарбий соҳага оид қимматли маълумотлар берилганлигига ҳам алоҳида тўхталиб ўтилган.

Калит сўзлар: Заҳириддин Муҳаммад Бобур, “Бобурнома”, қозон, замбарак, тўфанг, раъд, тахш, новак, тош, дорухона, лафет, фарангий, туфак, милтиқ.

Аннотация. В статье раскрываются некоторые военные термины и их значение в произведении «Бобурнома» великого царя и поэта Захириддина Мухаммада Бабура. В статье рассказывается, когда и в каком бою в пьесе использовались боевые искусства и оружие Бабура. Также было отмечено, что труд «Бобурнома» является энциклопедическим трудом, но содержит ценные сведения о войнах, наряду с историко-географическими и этнографическими сведениями.

Ключевые слова: Захириддин Мухаммад Бабур, «Бобурнома», қозон, замбарак, тўфанг, раъд, тахш, новак, тош, дорухона, лафет, фарангий, туфак, милтиқ.

Моҳир саркарда ва шоҳ, XVI асрнинг энг машҳур ҳукмдорларидан бири Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг “Бобурнома” асарида география, тарих, этнография, топография, зоология, адабиётшунослик ва бошқа фанлар ҳақида қимматли маълумотлар берилади.

Мемуар шаклида ёзилган ушбу асарда фаннинг кўплаб соҳаларига оид сўзлар ватерминлар кўп ишлатилган. Хусусан, қўшин тузулиши ва ҳарбий соҳага оид бўлган терминлар ва атамалар ниҳоятда кўп ишлатилганлиги билан ажралиб туради.

Машҳур академик В.Зоҳидовнинг маълумотларига кўра, “Ҳарбий санъатнинг машҳур арбобларидан бири бўлган Бобур” ўрта асарларҳарбий



1-TOM, 10-SON

соҳасининг барча жихатларини мукамал эгаллаган ва такомиллаштирган.

Барчамизга маълумки, Заҳириддин Муҳаммад Бобур поетика ва мусиқа соҳалари биланбир қаторда ҳарбий соҳага бағишланган илмий рисола ҳам ёзган. Лекин ушбу рисола бизнингзамонамизгача етиб келмаган.

Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг асосий асари ҳисобланмиш “Бобурнома” да XV аср охири ва XVI аср бошларидаги Мавороуннаҳрдаги сиёсий вазият, тож-у тарх учун ўзаро курашлар, Шайбонийхон ва у билан бўлган урушлар, шу билан биргаликда Хуросон, Афғонистон ва Ҳинд диёрида бўлиб ўтган тарихий ва сиёсий жараёнларнинг хронолигик баёнида ҳарбий соҳага оид сўзларнинг турли гуруҳлари билан биргаликда ҳарбий қурол-аслаҳаларнинг номларини ифодаловчи атамалар ҳам кенг қўлланилган.

Дастлаб, “Бобурнома”да қайд этилган ўт очувчи қуроллар ва уларнинг номлари ҳақида тўхталиб ўтамиз. Маълумки, “дастлабки ўт очиш қуроллари Ўрта Осиёда илк мартаба Мавороуннаҳрда Амир Темур ҳокимиятни эгаллагач пайдо бўлган”. Амир Темур даври ҳақидамаълумот берувчи кўпгина манбаларда ўт очувчи қуроллар раъд деб аталган. “Раъд сўзи арабчадан таржима қилинганда “момақалдиروق” деган маънони англатади”. Замбаракларни

раъд деб аташларининг ҳам сабаби бор. Сабаби шундаки, ундан ўқ узилганида кучли гумбурлаш овози эшитилган. Шу сабабдан унга раъд деб ном беришган.

Бобур кўшинида ҳам раъд қуролидан фойдаланилган. “Бобурнома”да қайд этилишича, Бобур ва Рано Санго ўртасидаги 1529-йил Ҳиндистоннинг Хўрда кўли яқинидаги жангда раъдандозлар қатнашгани айтилади: “Ва Низомиддин Али халифани ғазоти Рум дастуридек, буюрулдиким, милтиқчилар ва раъдандозларким, черикимизни олдида эдилар, аларнинг паноҳи учун арабларни келтуруб, занжир билан боғладилар”.

Шаҳбонийлар даврида ижод қилган Муҳаммад Солиҳ ўзининг “Шайбонийнома” асарида маълумот беришича, Шайбонийхон Самарқанд шаҳрини қамал қилган даврда (1500- 1501) Заҳириддин Муҳаммад Бобур аскарларида тахш (ёйнинг кичик тури, арбалет), новак (ўқ- ёй) ва тўфанг (милтиқ) каби қуроллар билан бирга раъд ҳам бўлганлигини таъкидлайди.

А.М.Беленскийнинг маълумотларига кўра, бу сўз форсчадан таржима қилинганда дег (тўпнинг катта турини) сўзининг таржимаси ҳисобланади. Бу атама тўп ёки замбарак маъносида фақат эски ўзбек тилидагина ишлатилган. “Бобурнома” асарида бу атама илк мартаба 1495 йил Султон Хусайн



1-ТОМ, 10-СОН

Мирзонинг кўшини Ҳисор қалъасида Хисравшоҳнинг кўшинларини қамал қилаётган жараёнида учрайди: “Султон Хусайн Мирзо келиб Ҳисор кўрғони қабоб тушди. Нақиб сўзлмоқ ва кўрғон олмоқ ва тош урмоқ ва қозон қурмоқнинг иш-кучида кеча ва кундуз ором ва қарори йўқ эди”

“Бобурнома” асарида кенг қўлланиладиган ҳарбий атамалардан яна бири зарбзандир. “Бу атама хажми жиҳатдан қозондан кичкина бўлган, лекин отиш тезлиги бўйича эса ундан анчайин тезроқ ва узоқроқ масофагача етиб борадиган дала тўпини билдиради”. Ушбу қурол ҳам худди қозон цингари лафет, яъни зарбзан аробасига ўртатилган. Бу борада “Бобурнома” асарида қуйидагича маълумот келтирилади: “Кўпрук боғлар ердин қуйироқ Мустафо Румий зарбзанлик аробаларини ота киришди”.

Бу атама “Бобурнома”да илк мартаба Бобурнинг 1526 йилда содир бўлган Иброҳим Лодий билан Панипат жанги тасвирида учрайди. Кўшин маркази ҳисобланмиш ғулнинг чап томонида Бобур саркардаларидан бири Мустафо Румий зарбзан тўплари билан Иброҳим Лодий кўшинларига зарбалар бериб турган.

“Бобурнома” асарида кўзга ташланадиган атамалардан яна бири бу фарангийдир. Фарангий Бобур кўшинида ҳам, Султон Хусайн Мирзо кўшинидаям мавжуд бўлган. Асарда фарангий тўпини отувчи ҳарбийларга нисбатан фарангибоз термини ишлатилган. Бу қурол ҳам душманнинг жонли кучларини, истеҳкомларини ва қалъаларини вайрон этишда қўлланилган. Унинг тўпи ҳам худди қозон тўпи цингари тош деб номланган.

Ҳарбий соҳада ишлатиладиган атамалардан яна бири бу замбарак маъносини англатувчи тўп терминидир. Уни илк бор Бобур 1529 йилги воқеалар тасвирида ишлатган. Унда айтилишича, Устод Алиқули ва Мустафо тўп, туфак, зарбзан ва фарангий цингари қуроллар билан зангга кирган. Тўп отувчилар эса тўпчи деб аталган.

Жанг бошланиш олдидан барча қуроллар: зарбзан, қозон, тўп ва фарангий учун махсус жой тайёрланган. Бу жой мулжор термини билан аталган: “Устод Алиқули била Мустафога зарбзан отмоққа ва қозон қурмоққа, мулжор кўпориб, ер ясамоқ учун қалин белдор ва қаҳорғамуҳассиллар тайин қилинди”.

Кўрғон ва қалъаларни қамал қилиб ўққа тутмоқчи бўлишса, энг аввало уларнинг атрофида баланд тупроқ кўрғон тикланган. Ушбу тепалик саркўбпар деб аталган. Бу тепаликлар барпо этилгач, тўплар унинг устига олиб чиқилган ва қалъадагилар шу тепалик устидан ўққа тутилган.



1-ТОМ, 10-СОН

“Бобурнома” асарида тез-тез учрайдиган узун стволли милтиқни англатувчи ўт сочувчи қуроллардан бири бу тўфанг (туфак) деб номланган. Бу қурол XVI асрларда Хуросон ва ЎртаОсиёда кенг тарқалган. Қуролнинг бу тари асосан, жангда душман ҳарбийларининг жонли кучларини йўқ қилишда фойдаланилган.

Тўфанг яъни туфак қуролидан Бобурнинг 1500-1501-йилларда Самарқанд шаҳрини Шайбонийхон аскарларидан ҳимоя қилишда ишлатгани ҳақида Муҳаммад Солиҳ ўзининг “Шайбонийнома” асарида маълумот берилган. Лекин Бобур ўзининг “Бобурнома” асарида бусўз илк мартаба 1518-йилги воқеаларни тасвирлашда фойдаланган. “Бобурнома”да 1508- 1518-йилги воқеалар тасвирланмаганини ҳисобга оладиган бўлсак, Муҳаммад Солиҳни берган маълумотлари ҳақиқатга анча яқин. Демак, Бобурнинг кўшинида тўфанг анча олдинроқ мавжуд бўлган дейиш мумкин.

Маълумотларга кўра, тўфанг цингари ўт очувчи қуроллар Ҳиндистонда ҳам, Афғонистоннинг шарқий ҳудудларида ҳам маълум эмас эди. Бу ҳақида ҳатто Бобур ўзи ҳам ёзади: “Бажавр эли, чун туфангни кўрмайдур эдилар, туфанг унидин ҳеч парво қилмадилар, балки туфанг унини эшитгач тамасхур қилиб, муқобалада шаниъ ҳаракатлар қилурлар эди”.

Тўфангдан отилган ўқлар совутни, қалқонни ва бошқа мудроффа қуролларини бемалол теша оларди. Уларни отувчилар эса тўфангдўзлар деб аталган. Тўфангдозлардан ташкил топган махсус кўшин тури Бобур армиясида мавжуд бўлган. Бобурнинг Иброҳим Лодий ва Рано Санго билан бўлган жангларида тўфангдўзлар маълум бир тактик ҳарбий операцияларни бажаришган.

“Бобурнома” асарида ўт очувчи қуроллар қаторида милтиқ сўзи ҳам қўлланилган. Милтиқдан ўт очувчилар эса милтиқчилар деб аталган. Бу иккала термин асарда илк мартаба Бобур ва Рано Санго ўртасидаги 1529-йилги жанг тасвирларида учрайди: “Ва нодирул аср Али Қули ўз улуси билан ғулнинг олдида эди ва милтиқ ва зарбзан ва тош отмоқда ишлар қилур эдилар... . Буюрдимким, ғулнинг ўнг ва сўлидин милтиқчиларни ўртада қўйиб, икки тарафдан корзор қилсунлар”. Кейинчалик бу қурол Ўрта Осиё ҳарбий соҳасида асаосий қуроллардан бирига айлана боради. Милтиқ ва тўфанг сингари қуролларнинг снарядлари, патронлари – ўқатамаси билан атала бошланган.

Бобурнинг “Бобурнома” асарида XV-XVI асрларда ҳарбий соҳада қўлланилган қурол- аслаҳалар ва техникалар ҳақида ҳам батафсил маълумотлар



1-TOM, 10-SON

берилади. Хусуан, фарангий, тўп, қозон, тўфанг, милтиқ ва бошқа ўт очувчи қурооллар Бобур қўшинида мавжуд бўлган. Айнан, ҳарбий тактика ва замонавий қуроол-яроғларнинг мавжудлиги, Бобурнинг айрим жанглардаги устунлигини таъминлаган. Масалан, “Бобурнома”да Патипат жанги тасвирида айнан ўт очар артиллериянинг устунлиги сабабли Бобур ғалаба қозонганлиги айтилади. Чунки, бу даврда ҳинд жангчилари ҳали бу каби ўт очар қурооллардан бохабар эмасдилар. Натижада, Бобур жанг пайтида уларни қўллаганда, Иброҳим Лодий қўшинлари саросимага тушганлар. Демак, жангнинг натижаси қайсидир маънода ҳарбий қуроолларга ҳам боғлиқ.

Адабиётлар

1. Z.M.Bobur. *Boburnoma*. / nashrga tayyorlovchi va lug‘at mualliflari: Xasanov S. Jo‘rayev
O. – Toshkent: Fan, 2019.
2. V.S Bhatnagar. Life and Times of Sawai Jai Singh, 1688–1743 : [англ.]. — Impex India, 1974. — 6 p.
3. An Advanced History of India. By R.C. Majumdar ... H.C. Raychaudhuri ... Kalikinkar Datta. (Second Edition.) : [англ.]. — Macmillan & Company, 1950. — 419 p.
4. Radheyshyam Chaurasia. History of Medieval India: From 1000 A.D. to 1707 A.D. : [англ.]. — Atlantic Publishers & Dist, 2002. — 161 p.
5. Giles Tillotson. Mughal India : [англ.]. — Penguin Books, 1991. — P. 4;
6. Hooja, Rima. A History of Rajasthan. — Rupa and company, 2006. — 453 p.
7. Chandra, Satish. Medieval India: From Sultanat to the Mughals (1206–1526). — Har-Anand Publications, 2006. – 203 p.
8. Gopinath Sharma. Mewar & the Mughal Emperors (1526-1707 A.D.) : — S.L. Agarwala, 1954. – 231 p.
9. A history of India under the two first sovereigns of the house of Taimur, Báber and Humáyun. Indian Culture London: Longman, Brown, Green, and Longmans. 1854. – 464 p.



1-TOM, 10-SON

JAHON ADABIYOTI NAMOYONDASI JEYMS JOYS HIKOYALARI

Shodikulova Aziza Zikirayayevna

Samarqand davlat tibbiyot universiteti Tillar kafedrasida assistenti PhD.,

Umarova Aziza Bobur qizi

Samarqand davlat tibbiyot universiteti Tibbiy pedagogika fakulteti 5kurs talabasi

Annotatsiya: maqolada Ingliz adabiyotida modernizm va modernistik hikoyalar haqida, jahon adabiyoti namoyondasi Jeyms Joys hikoyalari haqida umumiy ma'lumotlar keltirilgan. Shu bilan birga hikoyalarning badiiy talqini haqida ham fikrlar yuritilgan. Bundan tashqari XX asr boshlarida g'arb modern adabiyotiga taalluqli umumiy an'analar borasida ham bir qancha qarashlar mavjud.

Kalit so'zlar: modernistik hikoyalar, jahon adabiyoti namoyondalari, Jeyms Joys, hikoya janri, badiiy talqin, g'arb modern adabiyoti, modernizm.

Modernizm – asrning ma'naviy qiyofasi bo'lib, unda asrlar o'rtasidagi farqlar, “eski va yangi” qarama-qarshiliklari ularning mafkuraviy qarashlarining asosiy mezoni hisoblanadi. Modernizm - J. Joys va G. Shtayn, F. Kafka va G. Kayzer, L. Pirandello va Yu. O'Nil, T. Man va U. Folkner, A. Dyoblin va J. Dos Pasos, B. Brext va E. Ionesku, X. L. Borxes va G. G. Markes, A. Myordok va G. Grass modernizm ruhida. Ularning barchasi modernizm nuqtai nazaridan o'ziga xos bo'lib, ularning har biri modernizmning butun tipologiyasini, terminologik va uslubiy tavsiflarini oydinlashtirish uchun alohida yondashuvni talab qiladi. J.Joysning “Uliis”ini ham ramziy, ham avangard, “yuqori zamonaviy” va “postmodern” deb o'qish mumkin. Shunga ko'ra, romanning adabiy jarayondagi mavqei va o'rnini ham vaqt o'tishi bilan o'zgarishi muqarrar.

Zamonaviy tendentsiya adabiyot va san'at uslubi sifatida insonni o'rab turgan muhitni bezash va to'qishga intiladi; u hayot jarayonlarini eng mayda detallarigacha (neorealizm) kuzatib, ularni rang-barang, lingvistik, o'ylangan spektakllarga aylantirib, badiiy matnni murakkablashtirishga intiladi. Buning sabablaridan biri G'arb jamiyatidagi yuksak g'oyalarning qadrsizlanishi, tinimsiz, ma'nosiz hayot kechirgan inson ruhiyatining tartibsizliklari edi. Zamonaviy uslub romantizm, shahvoniylik, nozik tabiat va G'arb adabiyotidan mustahkam, mustahkam chiziqli strukturaviy poydevorni o'z ichiga oladi. Sharq san'ati ritmik ifoda, boy va nafis kashtachilik, sharqona nafislik bilan ajralib turadi.

Yevropa madaniyatida mujassamlangan XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi zamonaviy uslub o'quvchi tasavvurida qadimgi jahon sivilizatsiyasining davomi



1-TOM, 10-SON

sifatida mujassam bo'ldi, adabiy jarayon umumbashariy madaniy taraqqiyotning ajralmas qismiga aylandi. Bu hodisaning asosini nafaqat badiiy asar, balki adabiy tanqid, davriy matbuot, memuar (memuar, esdalik) va epistolyar (xat shaklidagi asarlar) ham tashkil etgan.

Zamonaviy ingliz yozuvchisi Jeyms Joys ijodi fransuz yozuvchisi Marsel Prust va nemis yozuvchisi Frans Kafka merosi kabi buyukdir. Shuning uchun ham G'arb adabiyotshunoslari bu uch asarni Yevropa modernistik adabiyotining "otalari" deb biladilar. Joys bugungi kunda modernizmning eng mashhur yozuvchilaridan biri sifatida tan olingan. Yozuvchining 1904-1914 yillarda yozilgan ilk hikoyalari keyinchalik "Dublinliklar" nomi bilan nashr etilgan; u bu to'plam bilan ham ingliz klassiklari qatoriga kirishga loyiq. Uning hikoyalari realistik, mubolag'asiz. Ularda og'ir kunlarni boshidan kechirayotgan, ijtimoiy-madaniy turg'unlikda yashayotgan, yuksak orzulardan yiroq, behuda xayollarga berilib ketayotgan tor fikrli insonlar taqdirini ko'ramiz.

19-asr oxiri — 20-asr boshlarida rus adabiyotiga modernizm g'oyalari kirib kela boshladi. V.Bryusov, N.Gumilyov, A.Axmatova, M.Svetaevalar faoliyati buning yorqin dalilidir. Faqat A.Platonovning "Kotlovan", "Chevengur" romanlari, M.Bulgakovning "O'q himoyachisi", "Usta va Margarita", B.Pasternakning "Doktor Jivago", V.Nabokov, I.Buninlar zamonaviy G'arb bilan uyg'unlikda adabiyot yaratdi. Yozuvchilar ijodi XX asr jahon adabiyoti sahnasida munosib o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Shodikulova, A. Z. (2021, December). The theory of an integrative approach to the analysis of the phenomenon of metonymy. In *Archive of Conferences* (pp. 56-57).
2. Shodikulova, A. Z. (2021). The text is about the phenomenon of cohesion. *Academicia Globe*, 2(05), 229-232.
3. Shodikulova, A. Z. (2022). The analysis of the phenomenon of metonymy. *Science and Education*, 3(12), 1136-1140.
4. Shodikulova, A. Z. (2021). Methodology For Using Computer Training Programs In English Lessons. *Turkish Journal of Computer and Mathematics Education (TURCOMAT)*, 12(13), 3358-3367.
5. Shodikulova, A. (2023). COHESIONS FORMED BY MEANS OF HYPONYMS. *Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры*, 3(9), 40-43.
6. SHODIKULOVA, A. Z. (2021). THE ROLE OF METONYMS IN THE FORMATION OF TEXT STRUCTURE. *THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука*, (9), 655-658.



1-TOM, 10-SON

7. Shodikulova, A. Z. (2021). COGNITIVE INTERPRETATION OF THE PHENOMENON OF METONYMY. *Scientific reports of Bukhara State University*, 5(1), 136-146.
8. Zikiryaevna, S. A. (2022). DISCURSIVE ANALYSIS OF DERIVED METONYMIE. *Journal of Positive School Psychology*, 1588-1592.
9. Zikiryayevna, S. A. COGNITIVE-DISCURSIVE ASPECTS OF IMPLEMENTATION OF METONYMY IN A MEDIA.
10. Zikiryaevna, S. A. (2022). Cognitive Interpretation Of The Phenomenon Of Metonymy. *Eurasian Medical Research Periodical*, 5, 102-104.
11. Шодикулова, А. З. (2021). МЕДИАМАТНЛАРИНИНГ ЛИНГВИСТИК ТАДҚИҚИ МАСАЛАСИ. *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА*, 4(2).
12. Mukhamadiyeva, M., & Sharipov, B. (2022). LATIN AS THE MAIN LANGUAGE OF MEDICINE. *Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences*, 1(7), 337-339.
13. Sharipov, B. (2023). SOME CONSIDERATIONS ON THE FORMATION OF CLINICAL TERMS IN LATIN. *International Bulletin of Applied Science and Technology*, 3(6), 477-479.
14. Sharipov, B. (2022). RETSIKLIK XUSUSIDA MULOHAZALAR. *Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования*, 1(19), 63-66.
15. Salimovich, S. B. (2022). RECIPROCAL SYMMETRY AND ITS GRAMMATICAL INDICATIONS. *EPRA International Journal of Research and Development (IJRD)*, 7(12), 129-131.
16. Salimovich, S. B. (2022). Studies of Reciprocity in Linguistics. *Eurasian Scientific Herald*, 8, 221-224.
17. Isroilova, M., & Sharipov, B. (2023). SOME OBSERVATIONS ON LATIN PRONUNCIATION AND SPELLING. *Science and innovation in the education system*, 2(7), 127-129.
18. Шарипов, Б. С. (2022). TIL BIRLIKLARINING NUTQDA FAOLLASHUVI HAQIDA. *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА*, 5(1).
19. Salimovich, S. B. (2022, January). FUNCTIONS OF LANGUAGE UNITS. In *Conference Zone* (pp. 62-63).
20. Nasimjanovna, K. F., & Salimovich, S. B. (2023). NAMES OF DISEASES AND THEIR USE IN CLINICAL TERMINOLOGY. *Journal of Universal Science Research*, 1(6), 469-474.
21. Salimovich, S. B. (2022, January). FUNCTIONS OF LANGUAGE UNITS. In *Conference Zone* (pp. 62-63).



1-TOM, 10-SON

Xushmurodova Shahnoza Shaymonkulovna

Ingliz tili kafedrası PhD, dotsenti

Samarqand Davlat Universiteti

xushmurodova.shahnoza@yahoo.com

Bilingual experience in constructing language identity

Annotation: The bilingual experience can be explored through various lenses, such as sociolinguistics, psycholinguistics, and cultural studies. Researchers can examine how bilinguals negotiate their identity through language use, how they switch between languages in different contexts, and how their language identity evolves over time. The study concludes that since language contains a common worldview and cultural meanings for native speakers, linguistic identity is also usually built through the language that is most often used in a person's daily life and the degree of proficiency, in turn, is related to the use of the language. Consequently, the degree of language proficiency improves the more the language is used.

Key words: bilingual experience, national identity, language identity, individual's identity, bilingual individuals.

Language identity

The bilingual experience is a unique and complex phenomenon that involves the use of two or more languages in daily life. Bilinguals often face challenges in constructing their language identity, which refers to the way individuals perceive and express themselves through language.

One approach to studying bilingual identity is to conduct interviews or surveys with bilingual participants. This method allows researchers to gather first-hand accounts of how individuals construct their language identity and how they navigate the complexities of being bilingual.

Another approach is to analyze language use in different contexts, such as at home, at work, or in social settings. This method can reveal how bilinguals adapt their language use to different situations and how they express different aspects of their identity through language.

Adolescents who are going through language development changes become more conscious of how others view them because peer acceptance becomes so important. This awareness frequently influences how people use language,



1-TOM, 10-SON

particularly how they alter their speech patterns to achieve a certain social standing among their peers (Durkin & Conti-Ramsden, 2007). In fact, teenagers frequently make linguistic innovations and changes, some of which eventually find their way into the language's basic structure. This is particularly true at the lexical level because young people tend to be imaginative wordsmiths who enjoy borrowing new words from other languages and even from other jargons, which are particular dialects used by a particular group.¹

One of the primary notions that come to brain when discussing language is communication. Language is necessary for all aspects of socializing with the outside world, but it is also a crucial component of one's identity. One's identity is what they present to the outside world and how they want to be viewed by them. Identity formation also necessitates a certain level of awareness because it involves conscious choices that alter an individual's identity. Family, peer relationships, and place are three factors that demonstrate a connection between language and identity over the course of a person's life.

National identity is defined as one of the constituent characteristics of a person's identity. It manifests itself in a sense of belonging to a certain nation, country, cultural space. Language, perhaps, plays the most important role in the formation of national identity. It forms a personality, its mentality, worldview, religion, behavior, lifestyle, value system and national character.

From early childhood, a person falls under the influence and power of language, assimilating the culture stored in it. The language imposes a coded in it shows a picture of the world, a model of perception of culture and behavioral norms. How does language shape our way of thinking, culture and identity? And, on the other hand, how does our language transform under the influence of constant changes in the world around us?

The problem of the relationship between language and thought has occupied the minds of philosophers and linguists for three thousand years.

Regardless of the scientific position, they agree that our language is inextricably linked with the culture and national identity of a person.

¹ Abdulfattah, O., & Mansour, A. (2017). Geographic location and linguistic diversity. *International Journal of English Linguistics*, 7(4), 220–229.



1-TOM, 10-SON

The "language situations" of children developing in a limited Russian-speaking environment are characterized by a bizarre flow and intertwining as a proper both linguistic and extra linguistic factors, they are so diverse that they practically do not lend themselves to any classification. Due to individual characteristics, different linguistic composition and educational attitudes of the family, by the beginning of the period of socialization, such children can speak only in Russian or only in the language of the host country, not to mention all intermediate options the relationship of two languages (the dominance of one or the other language).

How bilingualism affects language identity

Currently, bilingualism is a very common phenomenon. Due to increased mobility, intercultural and language contacts, more children grow up in bilingual families. Researchers have ambiguously treated – and still treat – the concept of bilingualism. The most common definition of bilingualism, according to which a bilingual is a person who can use two languages at the same level (CDO 2013).

Definitions by source can be further divided according to two criteria: a) languages learned in early childhood in the family when communicating with native speakers and b) languages used in parallel from early childhood to communicate in the environment. (Markosian 2004, 28; Skutnabb-Kangas 1981, 91.)

The first opportunity is realized in the family when the parents have different native languages, and everyone communicates with the child in their own language.

The second option, in turn, indicates, for example, the bilingualism of the environment, i.e. the child learns one language at home and another in the environment. Bilingualism is also defined by identification or attitude. At the same time, there are two approaches: a person identifies himself as a bilingual or others identify him as a native speaker of two native languages. The first is related to self-identification. This, however, may vary; in different circumstances, a person speaks a language to a different degree and identifies with different languages. It may depend on internal (indifference, motivation) and external (when he speaks a second language, the topic of conversation, who he is talking to, etc.) factors. (Skutnabb-Kangas 1981, 88-89.)

It should be noted that the definition of identification is ambiguous, since at different stages of life a person is sometimes defined as bilingual, sometimes as



1-TOM, 10-SON

monolingual. Some more (bilingual) people do not consider themselves bilingual, but identify themselves with only one nationality or language group

In most cases, a bilingual person does not speak two languages to the same extent, and one of the languages is dominant. Speaking two languages at the same level is called balanced bilingualism.

According to J. A. Fishman (Fishman 1971, 303), people rarely speak many languages at the same level in every situation, but use one language, for example, at work, and another in the home environment.

According to F. Grosjean, "Bilinguals usually learn and use their languages for different purposes, in different areas of life and with different people." So, there are several criteria for determining the native language, and, of course, that bilinguals can combine all these functions with two languages. Therefore, the native language can be called the language learned first, the language that is the most important, the most frequently used, which is known best, and with which it is easiest to identify yourself.

According to the well-known Sepir-Whorf hypothesis, each language represent reality differently and, consequently, the language a person speaks affects his worldview (Edwards 2009, 60). Thus, we note that language is one of the most important signs of identity.

In particular, ethnicity, nationality, culture and a person's belonging to a particular language group are expressed through language. Consequently, identity is built, changed, valued or not valued through language. Also, culture is always reflected in language, and therefore, identity is a language and culture in interaction with each other.

In other words, culture influences language and a person's identity, and vice versa. (Laihiala-Kankainen et al. 2002, 10-11.) It can be noted that language produces identities, and identities are produced by language (Iskanius 2006, 40). In addition to the communicative aspect of language, it is also a means of thinking and designates a particular culture; that is, language identity includes not only the language common to its speakers, words and expressions, as well as the whole a worldview that connects all native speakers of a particular language. (Dufva 2002, 36.)

So it can be noted that the cultural values of a certain society are expressed through language.



1-TOM, 10-SON

Naturally, sometimes a bilingual person who has heard speech in two languages since birth cannot distinguish them; he has two native languages. Still, usually a bilingual belongs more to one language group than to another. (Protasov 2004,14.) Note, however, that the term "native language" is not usually found in children's bilingualism (Chirsheva 2012, 183).

Thus, we note that the question of the native language of a bilingual person is difficult, since this concept is not considered stable. Its definition is influenced by situational, personal, as well as environmental factors. The language(s) with which a person grew up receiving emotional support can also be considered native.

Bibliography:

1. Skutnabb-Kangas, T. (1984). *Bilingualism or Not: The Education of Minorities*. Clevedon: Multilingual Matters.'
2. Haugen, E. (1953). *The Norwegian language in America: A study in bilingual behavior*. Philadelphia: Pennsylvania Press.
3. Dressler R. *Exploring Linguistic Identity in Young Multilingual Learners (In the Classroom)*. *TESL Canada Journal*. 2014; 32(1): 42-52.
4. Lanza, Svendsen (2007, 292.)
5. Leigh Oakes. *Language and National Identity: Comparing France and Sweden*
6. *IMPACT: Studies in Language and Society*) 2001. 305 pp. URL: <http://wegomere.jimdo.com/2013/06/15/language-and-national-identity-comparingfrance-and-sweden-impact-studies-in-language-and-society-download/>
7. Abdulfattah, O., & Mansour, A. (2017). Geographic location and linguistic diversity. *International Journal of English Linguistics*, 7(4), 220–229. <https://doi.org/10.5539/ijel.v7n4p220>
8. Kallifatides, T. (1993). Language and identity. *Harvard Review*, 4, 113–120. <http://www.jstor.org/stable/27559761>
9. Rovira, Lourdes C. (2008). The relationship between language and identity. The use of the home language as a human right of the immigrant. *REMHU - Revista Interdisciplinar da Mobilidade Humana*, 16(31),63-81. ISSN: 1980-8585.
10. Romaine, S. (1994). *Language in Society: An Introduction to Sociolinguistics* (2nd ed.). Oxford, UK: Oxford University Press.



1-TOM, 10-SON
TABIY FANLARNI O'QITISHDA VARIANTIV TUSHUNCHALARNI
O'RTA OSIYO ALLOMALARI IJODI ASOSIDA O'QUVCHILAR
TAFAKKURINI TAKOMILLASHTIRISH

Bobomurotov Sirojiddin Mengziyo o'g'li,
Termiz davlat pedagogika instituti
Boshlang'ich ta'lim metodikasi
kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya. O'qituvchilarning tabiatga bo'lgan munosabatlariga ularning psixologik holati ham katta ta'sir ko'rsatadi, bunday hollar sayohatlar, kuzatishlar, amaliy ishlar, o'qituvchining jonli hikoyalari paytida vujudga keladi. Shunga ko'ra o'quvchilar shaxsiga ta'sir ko'rsatish, ular bajargan ishlardan xursandchilik va qanoatlantiruvchi o'quv faoliyatiga jalb etish, darsda o'qituvchi faoliyatining zarur shartidir.

Tayanch tushunchalar: buyuk matematik, astranom, geograf, fan tarixida ilk qomusiy olimlar

Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'qitishda ilk variativ tushunchalarni shakllantirish talablari va mezonlari bu bilimlarning tizimlashtirilganligidir. Tabiiy fanlarni o'qitishda har bir sinfdagi ma'lumotlar takrorlamaydi, lekin biri ikkinchisining uzviy davomi hisoblanadi. Ma'lumotlar bir-birini to'ldirib boradi. Darslikdagi mavzular esa yanada kengroq, yanada chuqurroq bilimlar bilan boyitilib boriladi. Darslikdagi mavzularning berilishi o'quvchilarning yosh xususiyatlariga ko'ra tavsiflanishi didaktik talablardan biri hisoblanadi.

Tushuncha-narsa va hodisalarning muhim xususiyatlari, aloqalari va munosabatlarini aks ettiruvchi tafakkur shakli. Tushuncha bilish mahsulidir, bu bilish oddiydan murakkabga ko'tarila borib, tushunchalarni mukammallashtiradi, aniqlashtiradi va yangilarini shakllantiradi. Tushunchaning asosiy mantiqiy vazifasi biron narsani boshqa narsadan fikran ajratishdan iborat. Fanlarni turkumlarga ajratish va tabiiy fanlarni tushunchada umumlashtirish tabiat qonunlarini bilishning zarur shartidir. Har bir fan muayyan tushunchalar bilan ish ko'radi, ularda bilimlar jamlanadi. Tushuncha hissiy bilish shakllaridan farq qilib, inson ongida to'g'ridan to'g'ri aks etmaydi. U taqqoslash, analiz, sintez, abstraksiyalash, umumlashtirish kabi mantiqiy usullardan foydalangan holda hosil qilinadi.



1-TOM, 10-SON

Buyuk alloma **Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy** O'rta Osiyolik buyuk matematik, astranom, geograf, fan tarixida ilk qomusiy olimlardan biri. Xorazmiy tabiiy fanlar taraqqiyotida chuqur iz qoldirgan asarlaridan biri "Ziji Ko'ragoniy"dir. Asar nazariy astronomiya va astranomik jadvallardan iborat. Asar o'rta asrlar fanidagi astronomiyaga oid dastlabki asar bo'lib, 37 bobdan iborat va 116 ta jadvalni o'z ichiga oladi. Unda turli taqvimlar, Quyosh, Oy, sayyoralarning harakati va boshqalar haqida ma'lumotlar keltirilgan. Xorazmiyning "Kitob-amal bil-asturlobot" (Astrolyabiyalar bilan amallar haqida kitob) asarida qadimiy va O'rta asr astronomiyasining asosiy kuzatuv asbobi bo'lgan astrolyadiya (arabcha asturlob) yasash va undan foydalanish, osmon yoritgichlarining balandligi va bir kunlik harakati, geografik obyektlarning kordinatalari yangi oy chiqish muddatlarini aniqlash, aniq va lo'nda qoidalar tarzida bayon qilingan.

O'quvchilarni tabiatsevar qilib tarbiyalashda, dastlab umumiy tarbiyaning o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifalarini bilib olish lozim. Umumiy tarbiyani singdirishda tabiat elementlari, uning boyliklari, jonli va jonsiz tabiatni asrash nuqtai nazardan kelib chiqqan holda, yoshlarni uning sir-asrorini to'liq bilib olishga, o'rganishga va ulardan oqilona foydalanishga o'rgatishimiz kerak [2].

Atrofdagi olam bilan tanishish bo'yicha materiallarni o'rganishda o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish va ularning har taraflama etuk shaxs bo'lib rivojlanishi maqsadida ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlar hal qilinadi. O'quvchilarga o'z qishlog'i va shahalari misolida jamiyat hayoti bilan tanishtiriladi. Shu orqali o'quvchilarning tabiatga oid ilk invariant va variativ tushunchalari shakllantiriladi. Ularni tabiat bilan tanishtirishning, tabiatda bo'ladigan voqea - hodisalarning, o'simlik va hayvonot olamining roli beqiyos.

Maktab ta'limi o'quvchi hayotining muhim bir bosqichidir. Bu pallada u shaxs bo'lib shakllana boshlaydi. Ana shu jarayonlarni to'g'ri yo'lga qoyishda boshlang'ich sinf o'qituvchilari muhim ahamiyat kasb etadi. Ulardan bu borada kuchli ma'suliyat, salohiyat va bilim talab qilinadi. Buning uchun boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'qitishda o'quvchilarga tabiatni asrab - avaylash, uning manbalaridan oqilona foydalanish, odam va uning salomatligiga doir tushunchalar, foydali qazilmalar va ularning davlat iqtisodiga ta'siri kabi tushunchalar berish uchun dars soatlari ajratilgan. O'rgatiladigan bilim va tushunchalar o'quvchilarda tabiat va uning boyliklariga nisbatan ongli munosabatni qaror toptirishi lozim [6].

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga xos bo'lgan ta'sirchanlik ularda tabiatdan zavqlanish hissini shakllantirishni jadallashtiradi. Ulardagi hissiy charchashning



1-TOM, 10-SON

oldini oladi. Buning uchun tabiat qo'ynida o'tkaziladigan mashg'ulotlar sonini ko'paytirish, hissiy charchoqni pasaytiradigan mashqlardan samarali foydalanish, tabiat qo'yniga sayr-sayohatlar, ekskursiyalar tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Xususan, boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'qitishda ilk variantiv tushunchalarni shakllantirishda o'zaro ta'sirni amalga oshiruvchi omillardan biri o'quvchilarni ta'lim jarayonida ijodiy ta'sir ko'rsatishga motivlashtirish hisoblanadi. Ayrim tadqiqotchilarning ta'kidlashiga ko'ra, insonning o'zi tomonidan mustaqil ravishda egallangan tushunchalari muhim ahamiyat kasb etadi. Bu mustaqil ta'lim jarayonida, ya'ni o'quvchiga o'qituvchi tomonidan an'anaviy ravishda o'rgatilmaganda, mustaqil fikrlash jarayonida vujudga keladi, mazkur jarayonda muhokama qilinayotgan muammoning mazmun va mohiyati tushuniladi va tahlil qilinadi, reflektiv faoliyat amalga oshadi.

Bizning fikrimizcha, tabiiy fanlarni o'qitishda ilk variantiv tushunchalarni shakllantirish jarayonida ijodiy ta'sir ko'rsatishga motivlashtirish ularning faolligini ta'minlashga xizmat qiladi, o'z navbatida ijodiy faollik ham o'zaro ta'sirini amalga oshiruvchi omillardan biri hisoblanadi [4].

Tabiatni asrashning dastlabki urug'lari eng avvalo muqaddas maskan oilada qadaladi. Bizning nazarimizda, oila-oila a'zolari o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, unga rioya qilish va targ'ib qilish, zararli odatlarni oldini olish, toza musaffo tabiiy muhitni qaror toptirishning kichik yorqin modeli hisoblanadi. Oila a'zolarining munosabati, xo'jalik yuritish uslubi, tartib - qoidalari va odat - ko'nikmalari - oilaning qadriyatlarini belgilaydi [5].

Ta'kidlash joizki, boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'qitishda ilk variantiv tushunchalarni shakllantirish jarayonida darsning amaliy ahamiyati ortadi. Natijada esa o'quvchilarning ichki imkoniyatlari, yangi qirralari ochiladi. Shu bilan bir qatorda, ularda mustaqil ishlash ko'nikmalari rivojlanadi, o'z-o'ziga ishonch hissi ortadi, fanni o'rganishga bo'lgan qiziqish kuchayadi, ijodiy fikrlash qobiliyati shakllanadi, kelajakdagi o'z hayotiy faoliyatiga tayorlanishi uchun rag'bat hosil bo'ladi.

Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'qitishda variantiv tushunchalarni shakllantirish va rivojlantirish vositalaridan biri - ular faoliyat ko'rsatayotgan va yashayotgan muhit bo'lib, bu o'quvchilarda ilk invariant va variantiv tushunchalarni shakllantirish jarayoni subyektlarining o'zaro ta'sirini amalga oshiruvchi tashqi omillardan biri hisoblanadi [7]. Bunday ta'lim-tarbiyaviy muhitda o'zaro ta'sir



1-TOM, 10-SON

ko'rsatuvchi ishtirokchilarning suhbatlari va o'quvchining o'zini - o'zi rivojlantirishi asosida tafakkurning rivojlanish jarayonlari vujudga keladi, mazkur omil ota-onalar va jamiyatning zamonaviy talablari ta'siri ostida bo'ladi. O'quvchilarga tabiiy fanlarni o'qitishda ilk invariant va variantiv tushunchalarni shakllantirish jarayonida hamkorlikdagi ijodiy faoliyat qulay innovatsion muhitni tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar

1. Ibragimova N.A. Ekologik xavfsizlikni ta'minlash tizimining institutsional va funksional integratsiyasi: pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. Toshkent, 2018. - 138 b.
2. Ismatov I.Sh. O'quvchilarda atrof-muhitga mas'uliyatli munosabatni shakllantirish (anorganik kimyo misolida): p.f.n. diss..avtoref. - Toshkent, 2006. - 21 b.
3. Yo'ldoshev H.S., Avezov Sh.M. Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish asoslari. -T.: "Mehnat", 2003.- 94 b.
4. Ko'chkinov A.Yu. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ekologik tarbiyalash texnologiyalari: diss.....pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). -T., 2021. -147 b.
5. Karimjonov A., Ochilov F.I. Boshlang'ich sinflarda ta'lim-tarbiya muammolari. O'quv-uslubiy qo'llanma.-Toshkent: Firdavs-Shoh, 2021. - 204 b.
6. Karimova N.A, Ergasheva G.S. O'quvchilarning o'zlashtirishi sifatini ta'minlashga psixologik va genetik yondashuv// Uzluksiz ta'lim. Ilmiy-uslubiy jurnal. 6 son -2016.-103-107 b.
7. Komilova G. Maktabgacha yoshdagi (5-6 yosh) bolalarga ekologik tarbiya berishda xalq topishmoqlaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari): p.f.n., diss.... avtoref. - Toshkent, 2005. - 21 b.
8. Norbo'tayev X.B. Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'qitishda ekologik tafakkurni takomillashtirish. // International Multidisciplinary Conference// Hosted from Manchester, England 25th jan, 2023.



**1-TOM, 10-SON
SHAYBONIYLAR DAVRIDA DIN ULAMOLARINING BOSHQARUVDAGI
O'RNI.**

Sarvarbek Abduvakhobov

**Kamoliddin Behzod nomidagi milliy rassomchilik va dizayn instituti Tasviriy
san'at fakulteti Dekan o'rinbosari**

Hukmdorlar o'rtasidagi deyarli barcha sulhlar diniy ulamolar ishtirokida amalga oshirilgin. Hatto, hukmdorlar qahr-u g'azabga to'lgan chog'ida ham, din peshvolari aybdorlarni jazolanishdan saqlab qolish darajasida katta qudratga ega bo'lganlar. Masalan, 1507-yil Hirot Muhammad Shayboniy qo'shinlari tomonidan ishg'ol etilgach, shahar aholisi "moli omon" (solig'i)ga tortiladi. Shunda shahar ichidagi ba'zi amaldorlar shahar aholisi ko'magida qochib ketish maqsadida hiyla ishlatib, butun shahar bo'ylab "hozirgina Muhammad Muhsin mirzo (Husayn Boyqaroning o'g'li) o'z qo'shini bilan yetib keldi va Shayboniy bilan urushish uchun u tomonga ketdi", deb xalqni ko'chmanchilarga qarshi ko'tarish maqsadida yolg'on xabar tarqatishadi. Bundan shahar aholisi qo'zg'alib, shahar ichi va tashqarisida "moli omon" yig'ib yurgan uch yuz atrofidagi Shayboniyxon odamlarini o'ldiradi. Bunday vaziyatda shahar akobirlari xalqdan ayovsiz o'ch olinishining oldini olish maqsadida, din peshvolari va qozilarni Shayboniyxon huzuriga yuborib, shahar aholisining gunohidan o'tishini so'rashgan. Muhammad Shayboniyxon esa shaharning obro'li din peshvolariga qarshi bora olmay, Hirot aholisining gunohidan kechib, o'z sarkardalarining qasos olishiga ruxsat bermagan.

Shayboniyilar davrida Buxoro xonligida ulamolarning vositachiligi va murosa-yu madoraga undashi tufayli ko'p hollarda hukmdorlar o'rtasida o'zaro kelishuv sulhlari tuzilib, keraksiz urushlar va ortiqcha qon to'kilishining oldi olingan. Xususan, XVI asrning yirik diniy ulamosi bo'lgan Qosim Shayx ham Abdullaxon va Toshkent xonlari (Navro'z Ahmadxon, Bobo sulton) o'rtasida kelib chiqqan nizoni bir necha marta bartaraf etib, ularni yarastirib qo'ygan.

Qo'shinda diniy ulamolar – naqiblar, xo'jalar, sayyidlar, qozilar olib yurilgan. Ularning o'z tamoyillari asosida hukmdorlarga navkarlikka yollanishi qat'iy taqiqlangan. Ulamolar jang amaliyotida bevosita ishtirok etmasalar-da, qo'shinning jangovar ruhini oshirishda katta o'rin tutgan. Taniqli din arbobi, eshon yoki sayyidlarning qo'shin tarkibiga kiritilishi, harbiy yurishlarda ishtiroki, ularning duo va fothalari g'alabani ta'minlashiga ishonch qo'shinda kuchli bo'lgan. Ayrim hollarda



1-TOM, 10-SON

diniy ulamolarning da'vati bilan dushman tomon jangsiz taslim bo'lgan, raqib qo'shinining katta qismi g'oliblar safiga qo'shib olingan. Diniy ulamolar shayboniyalar qo'shini harbiy yurishlarining shariat qonun-qoidalariga mosligiga fatvo berib, ko'pincha dushman qo'shinini "qaroqchilar to'dasi", "kofirlar qavmi" va sunniy hanafiya mazhabida qoralangan boshqa nomlar bilan atab, olib borilayotgan urush va hatto talon-tarojlarni shar'iy tarafdin oqlaganlar. Yirik va hal qiluvchi janglar oldidan ulamolar qo'shin oldida chiqish qilib, o'z da'vatlarida jangda halok bo'lganlar shahidlar sifatida jannatga kirishiga oddiy jangchilarni ishontirganlar.

Bundan tashqari, ulamolar ma'lum urushlarni "muqaddas urush", "din yo'lidagi hayrli ish" deb baholab, hukmdorlarga bunday urushlarni boshlash uchun fatvolar ham berganlar. O'rta asrlarga oid pandnoma ruhida asarlarning ko'pchiligida hukmdorlarning din ulamolari oldiga, ularni ziyorat qilish uchun borishi va o'z yurishlariga ulardan ruxsat olishi haqida tavsiyalar beriladi. Buxoro xonlarining deyarli barcha yurishlari mamlakat shayxul-islomining fotihasi bilan amalga oshirilgan (Bunga Abdullaxonning 1551-yil Xurosonga, 1553-yil Shahrisabzga, 1558-yil Qarshiga, 1559-yil Balxga va h.k. yurishlarini misol qilib keltirish mumkin). Fazlulloh ibn Ro'zbehxonning "Mehmonnomayi Buxoro" asarida Muhammad Shayboniyxon Buxoroda qozoqlar ustiga muqaddas urush qilishga qaror qilgani, urush oldidan Xoja Bahouddin Naqshband qabrini ziyorat qilgani va bu urushga Xoja Abu Nasr Porso (vafoti 1537) va buxorolik ulamolarning fatvo bergani haqida ma'lumotlar mavjud. Shuningdek, Abdullaxon 1551-yil bahorida Xuroson ustiga yurish uchun jo'yboriy xoja Muhammad Islom huzuriga tashrif buyurib, dastlab undan ruxsat olib, o'z yurishining shariat qoidalariga mosligini asoslab berishini va keyin esa fatvo berishini so'ragan. Ubaydulla sultonning 1524- va 1529-yillarda Xurosonga yurishi bevosita din peshvolari tashabbusi bilan tashkil etilgan. Chunki bu davrda Xuroson Eron safaviylari (shia mazhabidagilar) qo'li ostida bo'lib, hirotlik ulamolar movarounnahrlik shayxlar va qozilarni o'z hukmdorlarini Hirotga yurish qilib, shialar hukmronligiga chek qo'yish maqsadini hosil qilishga ko'ndirishga undaganlar. Bundan ko'rinadiki, bu davrda nafaqat jo'ybor xojalari, balki boshqa diniy ulamolar ham xonlikdagi harbiy-siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etganlar.

Ba'zida din ulamolari ayrim harbiy to'qnashuvlarning natijalarini oldindan ko'ra bilgan va bunday janglarning tashabbuskorlari ham bo'lgan. 1512-yil Ismoil Safaviy (1502-1524) tomonidan Amir Ahmad (Najmi Soniy) boshchiligidagi katta qo'shin (ayrim manbalarda 60 ming, ayrimlarida esa 80 ming) bilan Movarounnahrda bostirib kirib, Qarshini qamal qilganda, Ubaydulla sulton va Jonibek sulton Karmana



1-TOM, 10-SON

atroflarida, Ko'chkunchixon va Temur sulton qolgan boshqa sultonlar bilan Miyonkolda edilar. Ularning barchasi dushman qo'shini o'zlaridan bir necha barobar ko'p bo'lganligidan chekinishga qaror qilganlar. Shu vaziyatda, Mir Arab laqabli Sayid Abdulla Yamaniy (Ubaydulla sultonning piri) Turkiston viloyatidan Buxoroga keladi. U Ubaydulla sulton va Jonibek sultonni jangga chorlab, hatto jang rejalarini tuzishda ham yordam bergan. Shuningdek, barcha shayboniy sultonlarni Ubaydulla sultondan o'rnak olishga chaqiradi va shu tariqa barcha boshqa shayboniy sultonlar G'ijduvonda birlashadilar. Ikki qo'shin o'rtasida bo'lgan to'qnashuvda Najmi Soniy yengiladi va o'zi halok bo'ladi. Mazkur g'alaba natijasida qo'lga kirgan katta miqdordagi o'lja jang tashabbuskori Mir Arab ixtiyoriga beriladi. Mir Arab esa ushbu mablag'lar hisobidan Buxoroda Mir Arab madrasasini (1530-1536) bunyod etgan.

Ma'lumki, XV asrning ikkinchi yarmi O'rta Osiyoning islomiy hayotida Xo'ja Ahror faoliyatining faollashuvi bilan izohlanadi. Keyinroq esa, bu hududlardagi ma'naviy-diniy hayotda sufiylikning bir qator yirik namoyondalari shakllanadi. Siyosiy hokimiyatning shayboniylar qo'lga o'tishi natijasida temuriylar davridagi yirik diniy ulamolar yangi diniy vakillar, xususan, XVI asrning ikkinchi yarmidan boshlab jo'ybor shayxlari bilan almashadi. Ulardan eng mashhurlari Xoja Muhammad Islom (1493-1563), Xoja Saad (1531-1589), Xoja Tojiddin Hasan (1547-1646), Xoja Aburaxim (1575-1628/1629) kabilar bo'lib, ular Naqshbandiya tariqatining yo'l boshchilari edilar. Bu davrda Movarounnahrda Yassaviya va Kubroviya tariqati namoyondalari ham mavjud bo'lgan bo'lsa-da, bu ikkala tariqat vakillari Movarounnahrning siyosiy hayotiga jo'ybor shayxlari kabi ta'sir eta olmas va aralashmas edilar.



1-TOM, 10-SON
Qishloq xo'jalik mollarini asosiy gelmentoz kasalliklari

Yaxshieva Dilafruz Abdumo'minovna
Veterinar (tadqiqotchi-pedagog) magistr Samarqanda davlat Veterinariya
Meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiya universiteti Toshkent filali

Annotatsiya: Yangi O'zbekiston davlatimiz aholisining sog'lom ovqatlanish konsepsiyasi va oziq-ovqat mahsulotlarining xavfsizligini ta'minlash hamda ularni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish respublika veterinariya xizmatining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, aholini sifatli go'sht, sut, tuxum mahsulotlari bilan ta'minlash Davlat siyosati darajasidagi muhim vazifa bo'lib, ushbu vazifalar ijrosi davlatimiz va hukumatimizning doimiy e'tiboridadir. Ammo bir qator yuqumli va invazion kasalliklar ayniqsa, chorva mollarining gelmintoz kasalliklari ushbu vazifalarni bajarishda jiddiy to'siq hisoblanadi. Xususan, chorva mollarining fassiolyoz va exinokokkoz kasalliklari muhim epizootologik va epidimiologik ahamiyatga ega bo'lib, ushbu kasalliklarga chalingan hayvonlarda "infeksiya davvozasi" yuzaga kelishi, chorva mollarining mahsuldorlik ko'rsatgichlari keskin pasayishi hisobiga katta iqtisodiy zarar yuzaga keladi.

Kalit so'zlar: kasallik, qishloq, gelmit. tur

Bu yo'nalishdagi tadqiqotlarning birinchi davri sayohatchi-tabiatchi olim A.P.Fedchenkoning 1868-1871 yillarda boshlangan va Turkiston o'lkasi (O'zbekiston, Turkmaniston va Qozog'istonning janubiy viloyatlarini qamrab olgan hudud)da olib borilgan, qo'ylardan yig'ib olingan gelmintlarni aniqlash natijasida quyidagi 8 tur gelmintlar aniqlangan:

1. *Trichuris ovis* (Abildg, 1795)
2. *Haemonchus contortus* (Rud. 1809)
3. *Dictyocaulus filaria* (Rud. 1809)
4. *Moniezia expansa* (Rud. 1810)
5. *Taenia hydatigena* Pallas, 1776
6. *Echinococcus granulosus* Batsch, 1786
7. *Fasciola hepatica* L, 1785
8. *Dicrocoelium lanceatum* stilles et Hassal, 1896 [52; 20-26-b].

Keyinchalik, K.I.Skryabin (1916) O'zbekistonning Sirdaryo viloyati va Qozog'istonning Aulieata shahrida qo'ylar orasida 21 turga mansub gelmintlar



1-TOM, 10-SON

parazitlik qilishi haqida ma'lumot beradi. Muallifning bu ma'lumotiga asosan, qo'ylarda yuqorida qayd qilingan 8 turdan tashqari 2 tur ezofagostomlar (*Oesofagostomum columbianum* va *O. venulosum*), 2 tur gangilonemalar (*Gangylonema seutatum* va *G. verrucosum*) yana 2 yangi tur monieziyalar (*Moniezia alba*, *M. denticulata*), 2 tur sintetokauluslar (*Synthetocaulus rufescens*, *S. capillaris*), bir turdan xabertiya (*Chabertin ovina*), bunostom (*Bunostomum trygonocephalum*), trixostrogilyus (*Trichostrongylus retortaeformis*), nematodirus (*Nematodirus filicollis*) va tizanieziya (*Thysanieza ovilla*)lar parazitlik qilishi aniqlangan.

5-Rossiya gelmintologik ekspeditsiya (1921) jarayonida 6 bosh qo'ylarni Toshkent shahrida, 1 bosh – Sirdaryoda, 2 boshdan Chorju va Marvda (hozirgi Mari), jami 11 bosh qo'ylarni to'liq gelmintologik yorish usuli bilan tekshirganda ularning gelmintofaunasi 22 tur gelmintlardan tashkil topishi haqida ma'lumot olingan.

Qashqadaryo viloyatidagi "Koson" qorako'lchilik xo'jaligida 70 bosh turli yoshdagi qo'ylarni To'liq Gelmintologik Yorish (TGYo) usuli bilan tekshirib, 26 xil (tur) gelmintlarni aniqlangan [4; 79-85-b].

Samarqand viloyatida, qorako'l qo'ylarning asosiy gelmintozlari va ularning epizootologiyasi bo'yicha olingan ma'lumotlarga ko'ra, qorako'l qo'ylarning gelmintofaunasi 3 sinfga mansub 33 tur gelmintlardan iborat bo'lib, ular orasida trematodalardan fassiola va dikrotseliyalar, nematodalardan diktikaula, gemonx, xabertiya, ostertagiya va ezofagoastomlar chaqiradigan kasalliklar asosiy gelmintozlar qatoriga kiradi.

K.I.Skryabinning TGYo usuli bilan tekshirilgan 59 bosh qo'ylarning 42 foizi *Fasciola hepatica* va *F. gigantica* bilan zararlanganligi, ulardan *F. hepatica* tez-tez uchraydigan va keng tarqalgan bo'lib, *F. gigantica* turi esa kam va chegaralangan miqdorda uchrashi aniqlangan [37; 183-b].

Narpay tumanida 28,48% qo'ylar, jumladan 31,2% ona qo'ylar va 10,6% bir yoshgacha bo'lgan qo'zilar fassiolar bilan zararlanganligi aniqlagan [65; 14-b].

O'zbekiston gelmintologiya fanining asoschisi professor N.V.Badanin respublikamiz iqlim sharoitini hisobga olib, gelmintozlarning mavsumiy dinamikasini o'rganishda yil fasllarini quyidagi muddatlarga bo'lishni taklif etadi: qish fasli 16 dekabr dan 15 martgacha; bahor fasli 16 martdan 30 aprelgacha; yoz fasli 1 maydan 31 avgustgacha; kuz fasli 1 sentabrdan 15 dekabrgacha.[33; 3-21-b].

Gelmintozlar epizootologiyasini o'rganishda N.V.Badanin taklif etgan yil fasllari undan keyingi gelmintolog-tadqiqotchilar (I.X.Irgashev, Sh.Azimov, B.S.Salimov, A.O.Oripov va ularning hamkasblari) tomonidan qo'llanilib kelinmoqda.



1-TOM, 10-SON

O'zbekistonning tog'-tog'oldi va cho'l-yaylov mintaqalarida qo'ylarning asosiy geogelmintozlarini o'rgangan mualliflar [8;153-154-b], bunday gelmintozlar qatoriga gemonxoz, ostertagioz, xabertioz, nematodiroz va strongiloidoz kirishi, gemonx va xabertiyalar kuchli patogen ta'sir etuvchi gelmintlar, ostertagiya va marshallagiyalarning patogen xususiyatlari "faqat gemonx va xabertiyalar bilan birgalikda uchraganda namoyon bo'ladi" deb ta'kidlaydi.

Gelmintlardan xoli (agelmintoz) qo'zilarini marshallagiyalar, gemonx va nematodiruslarning invazion lichinkalari bilan sun'iy zararlantirib chuqur eksperimental tajribalar olib borgan muallif [56; 248-252-b; 57;] turli xil trixostrogilidlarning qo'y organizmiga patogen ta'sirini o'rganib gelmintlarning, jumladan trixostrogilidlarning hayvon organizmiga patogen ta'siri eng avvalo invaziyaning intensivligi, gelmintlarning organizmda rivojlanish davri va boshqa bir qator omillarga bog'liq ekanligini aniqlagan. Jumladan, muallifning ta'kidlashicha "marshallagiyalar qo'y organizmiga juda qattiq patogen ta'sir ko'rsatadi va ularning eng kuchli patogen ta'sir etishi gelmintlarning preimaginal rivojlanish davriga to'g'ri kelgan".

O'zbekistonda qo'ychilikning asosiy qismini qorako'l qo'ylari tashkil qilishini hisobga olib, aynan qorako'l qo'ylarining gelmintlari va gelmintozlari bo'yicha keng-ko'lamlari, tadqiqotlar olib borgan, muallif [35; 249-257-b; 36; 137-144-b] qorako'l qo'ylar gelmintlarini ularning epizootologik va epidemiologik ahamiyatiga qarab ikki "kategoriyaga" (darajaga) bo'lgan.

1. Birinchi darajali ahamiyatga ega bo'lgan va tez yo'qotilishi zarur bo'lgan gelmintlar:

a) barcha mintaqalar (zona)larda keng tarqalgan, chorva mollari va inson uchun xavfli gelmintlar: exinokokk va senurlar;

b) qo'ylar orasida keng tarqalgan, ularning mahsuldorligini pasaytiradigan yoki hayvonlarning nobud bo'lishiga sabab bo'ladigan gelmintlar. Bu guruhga, muallifning fikriga ko'ra, monieziya, tizanieziya, marshallagiya, gemonxus, nematodirus, xabertiya va diktiokauyuslar kiradi va bu gelmintlar bilan ularni mintaqaviy tarqalishi va mavsumiy dinamikasini hisobga olgan holda kurash olib borish lozim;

v) ma'lum mintaqalarda tarqalgan, hayvonlar patologiyasida ma'lum ahamiyatga ega va katta iqtisodiy zarar yetkazadigan gelmintlar. "Bu gelmintlarga fassiola, dikrotseliya, avitellina, bunostom va trixotsefallar kiradi deb, bu gelmintlarni 3-5 yilda yo'qotish lozim" deb ta'kidlaydi muallif.



**1-TOM, 10-SON
XULOSALAR**

1. Kaprologik tekshirish natijalariga ko'ra, Toshkent viloyatining tog'li va qo'ychilik rivojlangan Ohangoron, Bo'stonliq va Parkent tumanlarida qo'ylar 80 foizgacha turli gelmintlar bilan zararlangan. Zararlangan qo'ylar orasida nematodiruslar qariyb 50 foizni, marshallagiylar va boshqa oshqozon ichak strongilyatlari 18-19 foizni tashkil etadi.

2. Dag'al junli go'sht yo'nalishidagi mahalliy zotli qo'ylarda 12 foiz marshallagiylar, 31,8 foiz nematodiruslar va 15,3 foiz boshqa oshqozon ichak strongilyatlar qayd etildi.

3. Tekshirilgan mayin jun beruvchi merinos zotli qo'ylarning marshallagiylar bilan 28,8 foiz, nematodiruslar bilan 44,4 foiz va boshqa oshqozon ichak strongilyatlari bilan esa 26,6 foiz zararlangan. Shuning bilan birga **merinos zotli** qo'ylar fassiolar bilan 17,7 foiz zararlangan bo'lsa, mahalliy zotli qo'ylar 3,2 foiz zararlanganligi aniqlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Azimov Sh.A. Epizootologiya anoplotsefalyatozov melkogo rogatogo skota v usloviyax UzSSR. //Mat-ly n.konf. VOG, ch.1, M., 1963.

2. Abduraxmanov T.A., Do'stova R.T., Oripov A.O., Mukumov X. Dinamika izmeneniy nekotoryx mikroelementov v krovi pri eksperimentalnyx geogelmintozax oves i koz.// Borba s infek. i invaz. bolezniyami s/x j-x. Samarkand, 1972. S. 75-76.

3. Azimov Dj. Vyyavlenie glavneyshix gelmintozov u oves v Surxandarinskoy oblasti Uzbekistana.//Tez.dokl.nauchn.konf.VOG ANSSR, ch.1, 1962. S.9.

4. Azimov D.A. Gelminty oves yuga Uzbekistana i dinamika glavneyshix gelmintov. // Avtoref. kand. diss., M., VIGIS, 1963. S19.

5. Azimov D.A., Dadaev S.D., Akramova F.O., Saparov K.A. Gelminty jvachnyx jivotnyx Uzbekistana. Tashkent, 2015. S.152.

6. Azimov Sh.A., Xaitov R.X. Sezonnaya dinamika anoplotsefalyatozov oves i megy borby s nimi v usloviyax Uzbekskoy SSR. //Tr. UzNIVI, t.16, 1964. S. 153-154.



1-ТОМ, 10-СОН

**ЭКСТРОКАРПОРАЛ ДЕТОКСИКАЦИЯ УСУЛИНИ
ҚЎЛЛАШНИНГ БЕМОРЛАДАГИ САМАРАДОРЛИГИ**

**Т.ф.н. Б.К. Худойкулов., З.Б.Худойкулова., У.А.Ахмадов.
Термиз Иқтисодиёт ва Сервис Университети Тиббиёт кафедраси.
Термиз Давлат Унверситети магистри. ТТАТФ талабаси.**

Экстракорпарал детоксикация усули замановий тиббиёт технологиясига асосланган бўлиб, беморлар қон таркибидаги эндотоксинларни суриб олиш ёки ажратиб ташлашдан иборат булиб, қон таркибидаги метаболитлар ёки токсинларнинг таъсирини камайтириш орқали бемор организмни захарланишдан бартараф этишга асослаган. Организмдаги патологик ахамиятга эга бўлган субстанцияларни даволаш плазмоферези орқали амалга ошириш мумкин. Бунда бемор қони ёки плазмаси(гемосорбция ёки плазмасорбция) кумир сорбенти орқали утказилиб организмдаги ҳар хил токсик моддаларни ажратиб олади. Экстракорпарал детоксикацион усулнинг самараси беморни даволашда сезиларсиз, минимал ёки қуринмас даражада бўлсада, организмнинг захарланишини сезиларли даражада йукотади ва бир неча бор қуллаш билан беморни бундай хасталиқдан тулик бартараф этишгача натижа олиш мумкин. Асосан узок давом этувчи гемодинамик узгаришларда, комплекс даволашларнинг самараси бўлмаган ҳолатларда, организмнинг сув электролит ва кислотли асосли бузилишлари эвазига миокарднинг функционал бузилиши, нерв системаси ва респиратор бузилиш ҳолатларда ҳамда қон хусусиятларинг узгаришлари каби оғир кечувчи оқибатларни бартараф этади. Плазмасорбция бу танадан ташқарида плазмани сорбентдан утказиш орқали қон плазмасидан турли хил токсик маҳсулотларни олиб ташлашга қаратилган эфферент экстракорпарал детоксикация усулидир. Гемосорбция экстракорпарал гемокоррекциянинг замонвий усулларидан бири булиб у беморнинг қон плазмасидан патоген кампонетларни махсус сорбент юзасида сингдириш ва сақлаб қолиш жараенига асосланган. Қон плазмаферези бугунги кунда қуплаб турли захарланган беморларда қулланилмоқда. Перитонитнинг оғир фазаларида



1-TOM, 10-SON

детоксикацион вариантларда амалга оширилади терапиянинг принципи перитонитга олиб келувчи источникни бартараф қилишдир. Операциядан кейин корин бушлиги санація килинғач операциядан кейин даво терапиясининг узи дархол огир патомарфологик узғаришларни бартараф эта олмайди, шундай ҳолатларда экстракорпарал детоксикация усулини куллаб организмдан токсинларни чиқариб, функционал метаболик узғаришларни яхшилади бу эса уз урнида беморнинг соғайишини тезлаштиради ва яхши самара беради. Экстракорпарал детоксикациянинг бошка тури ҳам мавжуд булиб унга Конни ультрафиолетлаш усулидир. Экстракорпарал детоксикация усуллари беморларга ишлатиладиган барча мавжуд воситалардан (плазмаферез, қоннинг ултрабинафша нурланиши, плазма сўрилиши, гемосорбсия, буйракни алмаштириш терапияси, билвосита электрокимёвий оксидланиш) фойдаланган ҳолда тиббий ёрдамани кўрсатишдан иборат. Шунингдек замонавий экстракорпорал даволаш усуллари ишлаб чиқиш ва амалга ошириш сифатида терапевтик экстракорпорал даволаш усуллари қўлланилади.

Плазмаферезнинг эфферент терапиянинг асосий усули (экстракорпорал детоксификация, гравитацион қон жарроҳлиги) бўлиб, бунда бемор қон плазмасини ажратиб олишдан иборат булиб, унинг ҳажмини қон ўрнини босувчи еритмалар, 0,9% натрий хлорид еритмаси ёки donor плазмаси билан алмаштиришдан иборат. Терапевтик плазмаферез кўплаб касалликларни (200 дан ортиқ) даволашда терапевтик мақсадларда амалга оширилади.

Плазмаферез сеанси давомида плазма намунасининг терапевтик таъсирини белгиловчи асосий омиллар: плазманинг бир қисми билан биргаликда касалликни келтириб чиқарадиган моддалар касалликни келтириб чиқариши ёки касалликнинг кечишини кучайтириши мумкин (холестерин, патологик иммуноглобулинлар, сийдик кислотаси, токсинлар, оксил метаболизмнинг якуний маҳсулотлари (креатинин, карбамид ва бошқалар.) олиб ташланади.

Гемосорбция - бу танадан ташқаридаги сорбент қон билан алоқа қилиш орқали қондан турли хил токсик маҳсулотларни олиб ташлашга қаратилган эфферент терапия (экстракорпорал детоксификация) усули.

Сорбсия усуллари токсик моддаларнинг кўплаб молекулаларининг таркибида заряд ёки еркин радикалларнинг мавжудлиги каби хусусиятга асосланган. Сирт фаол моддаларни ўз ичига олган сорбент билан алоқа қилганда,



1-TOM, 10-SON

бундай молекулалар иккинчисига адсорбцияланиши (яъни сорбент юзасига ўрнатилиши) ёки сўрилиши (яъни сорбент ҳажмида ўрнатилиши) мумкин. Сорбентнинг табиати бўйича гемосорбция бўлиши мумкин:

Танланмаган

Ярим-танланган селектив

Гемосорбциянинг селектив бўлмаган вариантида фаоллаштирилган углерод сорбент сифатида ишлатилади, бу сўриладиган моддаларнинг кенг доирасига ега сирт фаол моддалар орасида енг таниқли ҳисобланади. Ярим селектив вариантида ион алмашинадиган қатронлар сорбент сифатида ишлатилади, улар токсик моддаларнинг айрим турларига маълум тропиклик (селективлик) га ега. Ва ниҳоят, селектив вариантида иммуносорбентлар (баъзи моддаларга антикорларни ўз ичига олган) ишлатилади.

Гемосорбция қуйидаги ҳолларда кўрсатилади: турли хил келиб чиқадиган захарлар оқибатида анафилактик шокда уткирпанкреатит; перитонит; васкулит; терида турли тошмали ярали касалликлари; жигар ва ошқозон-ичак трактининг патологияси; спиртли ичимликлар ёки гиёҳвандлик. Оқибатида жигар тизимининг токсик гепатитларида.

Гемосорбция қуйидаги ҳолоатларда қулланилмайди:

Агар қон ивишининг бузилиши, қон кетиши ёки катта қон юқотиши, буйрак ёки жигар этишмовчилиги, юрак-қон томир тизимининг патологиялари, гипотензияга олиб келадиган тизимли қон касалликлари мавжуд булса, протседура беморларга буюрилмайди

Плазмосорбция-бу танадан ташқарида сорбент билан плазма билан алоқа қилиш орқали қон плазмасидан турли хил токсик маҳсулотларни олиб ташлашга қаратилган ефферент терапия (экстракорпорал детоксификация) усули. У чиқарилган плазма утилизация қилинмаса ва қон ўрнини босувчи ва физиологик еритма билан алмаштирилмаса, қўшимча сорбциядан сўнг беморга қайтарилганда қўлланилади.

Плазмосорбция экстракорпорал гемокоррекциянинг замонавий усулларида бири бўлиб, у беморнинг қон плазмасидан патоген компонентларни махсус сорбент юзасида сингдириш жараёнига асосланган

Қон плазмафрези бугунги кунда бир нечта вариантларда амалга оширилади: мембрана-модданинг бир нечта филтрлардан ўтишини ўз ичига олади – центрифуга-катта ҳажмдаги қон дарҳол сантрифугада ажратилади ва



1-ТОМ, 10-СОН

беморга қайтиб келади; каскад - бир хил мембрана, фақат кон филтрлардан бир неча марта ўтади.

Шундай қилиб Экстракорпорал детоксикация усули ҳар қандай ҳолатларда ҳам беморлар учун замонавий технологияларга таянган ҳолда, бемор соғлигини тиклашда муҳим аҳамиятга эга бўлиб организмнинг захарлангандаги ҳолатини яхшилашда ишончли восита бўлиб хизмат қилади. Экстракорпорал детоксикация усули хавфсиз бўлиб перитонитнинг оғир сепсис ҳолатларида беморнинг ҳаётини сақлаб қолишда бебаҳо роль ўйнайди.

Фойдаланилган адабийотлар руйхати:

1. Р.Н.Акалаев, К.С.Ризаев, А.А.Стопницкий, Н.А.Ишбаев Сочетанное применение экстракорпоральной и непрямой электрохимической детоксикации в лечении тяжелых форм эндотоксикоза. Инфекция, иммунитет и фармакология 2012;
2. А.Л.Костюченко Активная детоксикация. Мир медицины. СПб 2010;
3. А.М.Хаджибаев, К.С.Ризаев, Д.С.Собиров Опыт применения рокальцитонинового теста в диагностике септических осложнений острого деструктивного панкреатита. Вестн экстрен мед 2011;



**1-ТОМ, 10-СОН
СОВРЕМЕННОЕ ВЕДЕНИЕ ЖЕНЩИН С АНОМАЛЬНЫМИ
МАТОЧНЫМИ КРОВОТЕЧЕНИЯМИ**

**Асадова Мухабат Икромовна
Ташкентская медицинская академия
Кахорова Висола
Ташкентская медицинская академия**

Аномальное маточное кровотечение (АМК) является широко распространенным гинекологическим заболеванием и составляет от 5 до 53% в разные периоды жизни женщины. Международная федерация по гинекологии и акушерству. (FIGO) в 2011 г. предложила классификационную систему PALM-SOEIN, выделяющую 2 группы АМК, связанные и нет с органической патологией матки. I группа (PALM) включает 4 категории структурных нарушений: полип, аденомиоз, лейомиома и малигнизация /гиперплазия; II группа (SOEIN) - 4 категории нарушений, обусловленных коагулопатией, овуляторной дисфункцией, эндометриальными изменениями функционального характера или ятрогенными, и категорию с не классифицированными нарушениями. Классификация «PALM-SOEIN» в менопаузе не применяется, так как любые маточные кровотечения в постменопаузе, по определению, всегда аномальные и основной задачей является морфологическое (гистологическое, цитологическое) исследование с целью исключения рака эндометрия. Более чем у половины больных, страдающих АМК, выявляются врожденные нарушения системы гемостаза со склонностью к геморрагиям (51-73%). И выявляются также у пациенток с разнообразной гинекологической патологией: миомой матки, гиперплазией эндометрия, сочетанной гинекологической патологией, эндометритом. Определение оптимального объема диагностических процедур у больных с АМК является актуальной задачей. Трансвагинальное УЗИ органов малого таза является процедурой 1-й линии. Соногистерография проводится при недостаточной информативности трансвагинального УЗИ для уточнения очаговой внутриматочной патологии. Гистероскопия и биопсия эндометрия считается «золотым» стандартом диагностики, для исключения предрака и рака эндометрия. МРТ рекомендуется при наличии множественной миомы матки для уточнения топографии узлов, а также при подозрении на аденомиоз. Выбор метода лечения определяется тяжестью анемизации, возрастом, наличием сопутствующих заболеваний и противопоказаний. После исключения



1-ТОМ, 10-СОН

органических причин АМК, назначается медикаментозное лечение. Для женщин репродуктивного возраста целью терапии является не только уменьшение кровопотери, а также восстановление репродуктивной функции. Лечение различных клинко-патогенетических вариантов АМК должно быть строго индивидуальным и состоит их 2-х этапов. I этап – остановка кровотечения(гемостаз): негормональный (антифибринолитики: транексамовая кислота; нестероидные противовоспалительные препараты: напроксен, мефенаминовая кислота, нимесулид, ибупрофен); гормональный (комбинированные оральные контрацептивы (КОК) с содержанием 30–35 мкг этинилэстрадиола, пероральные прогестины, агонисты гонадотропин-рилизинг гормона, препараты применяются в течение 3 менструальных циклов); хирургический гемостаз («золотой» стандарт) достигается путем проведения гистероскопии с биопсией эндометрия и раздельное диагностическое выскабливание эндоцервикса и эндометрия с патогистологическим исследованием. II этап – противорецидивная терапия, задачей которой является восстановление работы гипоталамо-гипофизарнояичниковой системы, восстановление овуляции и дефицита половых гормонов. Что достигается назначением либо монофазных КОКов, либо гестагенов в циклическом режиме, либо установлением внутриматочной спирали «МИРЕНА» на 5 лет, рекомендовано для женщин старше 35 лет, не заинтересованных в беременности, либо назначением растительных препаратов на основе экстракта плодов прутняка обыкновенного в дозировке - 20 мкг (Префемин) на 3-6 циклов. Что способствует снижению возможных рецидивов и частоты радикальных оперативных вмешательств в будущем.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

11. *Doniyorov. A.X. Bo ‘riyev B.O. Ashirov. A.A. Markaziy Osiyo xalqlari etnologiyasi. Toshkent: 2020*



1-TOM, 10-SON

TIBBIY ASBOBLAR. O'LCHASH VA NAZORAT QILISH USULLARI.

Xaitov Farhod Nasriddin o'g'li

Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali biofizika fani o'qituvchisi.

Annotatsiya: O'lchov turlari va usullarini metrologiya fani o'rganadi. Metrologiya - o'lchovlar, ularning birligini ta'minlash usullari va vositalari va kerakli aniqlikka erishish yo'llari haqidagi fan. Bu eng muhim fanlardan biridir, chunki insoniyat mavjud bo'lganidan beri doimiy ravishda ba'zi o'lchovlarni amalga oshirib kelgan. Misol uchun, dastlab ular barmoqlar yoki toshlarda o'lchagan, keyin boshqa o'lchov vositalari paydo bo'lgan, masalan, abak. O'lchov aniqligiga qo'yiladigan talablar doimiy ravishda o'sib bormoqda, vositalar doimo rivojlanib bormoqda. Ushbu maqolada asosan zamonaviy tibbiyot o'lchov asboblari va ularning ishlash prinsiplari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: O'lchash, o'lchov asboblari, metrologiya, qiyoslash, diagnostika, sanitariya.

Inson aql-idroki, zakovati bilan o'rganayotgan, shakllantirayotgan hamda rivojlantirgan qaysi fanni, uning yo'nalishini olmaylik, albatta, o'lchashlarga, ularning usullariga, o'zaro bog'lanishlariga duch kelamiz. Ayniqsa fizik elektr asboblari o'lchash usullari va vositalari yordamida har xil kattaliklarni o'lchash va ularga bog'liq masalalarni mukammal o'rganish orqaligina amalga oshiriladi. Shu sababdan, hozirgi qaysi bir fan, ilmiy yo'nalish, u xoh tabiiy, xoh ijtimoiy bo'lmasin, albatta elektr energiyasi ta'minoti bilan bevosita bog'liq. Inson qo'li yetgan, faoliyati doirasiga kirgan, ammo, o'lchashlarsiz o'rganilgan, izlangan hamda ko'zlangan maqsadlarga erishish mumkin bo'lgan bironta yo'nalish yo'q. Shuning uchun ham o'lchashlar asoslarini bilish, uni o'z mutaxassisligi doirasida tushunish va amaliy qo'llash har bir fizika yoki texnika yo'nalishidagi mutaxassislar tayyorlashda muhim omillardan biri bo'lib hisoblanadi.

Metrologiya fanga aylandi, uni hech bir sohaning mutaxassisiz bajara olmaydi. Hozirgi vaqtda metrologiya bir necha yo'nalishda rivojlanmoqda. Agar 20-asr boshlarida metrologiya so'zi fan sifatida tushunilgan bo'lib, uning asosiy vazifasi turli mamlakatlarda qo'llaniladigan barcha turdagi o'lchovlarni tavsiflashdan iborat bo'lgan bo'lsa, endilikda bu tushuncha ancha kengroq ilmiy va amaliy ma'noga ega bo'lib, metrologiyaning mazmun-mohiyatiga ega bo'ldi. faoliyati kengaydi va "ishlab chiqarishni metrologik ta'minlash" tushunchasi. [1]. Metrologiyaning uchta tarmog'i mavjud: Nazariy metrologiya - o'lchash texnologiyasining asosi bo'lib, umumiy o'lchov masalalarini va o'lchovni tashkil etuvchi elementlarni o'rganish bilan



1-TOM, 10-SON

shug'ullanadi: o'lchov vositalari, fizik kattaliklar va ularning birliklari, o'lchash usullari va usullari, o'lchash natijalari va xatolar va boshqalar. Yuridik metrologiya - o'lchovlarni bajarish normalari va qoidalarini ishlab chiqadi va amalga oshiradi, o'lchovlarning bir xilligiga erishishga qaratilgan talablarni, o'lchov vositalarini ishlab chiqish va sinovdan o'tkazish tartibini belgilaydi, metrologiya sohasidagi atamalar va ta'riflarni, fizik kattaliklar birliklarini va qoidalarini belgilaydi. Nazorat va tekshirish o'lchovlari, ularning xatosi ma'lum bir ehtimollik bilan ma'lum bir belgilangan qiymatdan oshmasligi kerak. Ushbu sinfga texnik reglamentlar talablariga rioya etilishi ustidan davlat nazorati (nazorati) laboratoriyalari tomonidan amalga oshiriladigan o'lchovlar, shuningdek, o'lchov uskunalari va zavod o'lchov laboratoriyalari holati kiradi. Ushbu o'lchovlar natijaning xatosini ma'lum bir ehtimollik bilan kafolatlaydi, ba'zi bir oldindan belgilangan qiymatdan oshmaydi. Texnik o'lchovlar, unda natijaning xatosi o'lchov vositalarining xususiyatlari bilan belgilanadi. Texnik o'lchovlarga sanoat korxonalarida, xizmat ko'rsatish sohasida va boshqalarda ishlab chiqarish jarayonida bajariladigan o'lchovlar misol bo'ladi.

Hozirgi vaqtda har qadamda har xil turdagi o'lchovlarni topish mumkin. Misol uchun, faqat tug'ilgan odam o'lchanadi - ular uni tortishadi, haroratini tekshiradilar va balandligini o'lchaydilar. Biz tashqaridagi havo haroratini baholaymiz, vaqtni kuzatib boramiz va deyarli har qanday harakatlarimiz qanchalik foydali va oqilona ekanligini hal qilamiz. Har qanday korxonada inson faoliyati o'lchovlar bilan bog'liq. Ishlab chiqarishni metrologik ta'minlashni amalga oshiruvchi sanoat korxonalarining muhandislari butlovchi qismlar va qismlarning o'zaro almashinish muammolarini hal qilish, mahsulot ishlab chiqarishni uning butun hayotiy davrlarida nazorat qilish uchun o'lchash vositalarining imkoniyatlari haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lishi kerak.

Tibbiyot texnikasining rivojlanishi tibbiy texnikaning yangi namunalarini paydo bo'lishiga imkon beradigan fan va texnikaning rivojlanishi bilan chambarchas bog'liqdir. Diagnostika va davolashda yangi yo'nalishlarning paydo bo'lishi davolash – profilaktik chora – tadbirlarni ijobiy natijalar bilan amalga oshirishga imkon beradigan yangi texnik vositalarni yaratilishiga shart – sharoitlarni yaratdi. Tibbiyot texnikasi o'rganish uchun tibbiyot elektronikasini ilmiy asoslangan holda mukammal o'rganish maqsadga muvofiqdir. Chunki hozirgi vaqtda elektronika tushunchasi keng tarqalgandir. Zamonaviy texnika fani bo'lgan elektronika, eng avvalo hozirgi zamon fizika yutuqlariga asoslanadi, shuning uchun elektron apparatlarsiz hozirgi kunda kasalliklar diagnostikasini ham, ularni effektiv davolashni ham amalga oshirib bo'lmaydi. Davolash maqsadida organizmga turli fizik faktorlar (ultratovush, elektr



1-TOM, 10-SON

toki, elektromagnit maydon va boshqalar) bilan dozali tasir ko'rsatishni taminlovchi elektron qurilmalari: mikroto'lqinli terapiya apparatlari, elektroxirurgiya uchun apparatlar, kardiostimulyator va boshqalar bo'lib hisoblanadi. Zamonaviy tibbiyot elektronikasining asosi kibernetika elektron qurilmalari bo'lib ular: a) tibbiy-biologik axborotni qayta ishlash, saqlash va avtomatik analiz qilish, muayyan masofaga uzatish uchun elektron hisoblash mashinalari; b) hayot uchun zarur bo'lgan jarayonlarini boshqarish va odamni o'rab olgan atrof muhitning holati ustidan avtomatik tartib o'rnatish uchun tuzilmalar; v) biologik jarayonlarning elektron modellari va boshqalarni tashkil qiladi. Tibbiyot elektorinikasi asbob va apparatlarining ishlatilishi diagnostika hamda davolashning samaradorligini va tabobat xodimining mehnat unumdorligini oshiradi. Tibbiyot texnikasining asosiy ko'rsatkichlariga quyidagilar kiradi: xavfsizlik, samaradorlik, mutanosiblik, o'zaro almashinuv, tizimlash.

Samaradorlik – tibbiy texnikani ishlab chiqarish, qadoqlash, saqlash, sotish va ekspluatatsiya qilish (foydalanishda) mo'tadil natijaga erishishdan iborat ko'rsatkich. Mutanosiblik – tibbiy texnikaning yaroqliligi, ko'ngilsiz o'zaro ta'sirini vujudga keltirmaydigan, hamkorlikda foydalanishga nisbatan jarayonlar yoki xizmatlarning foydaliligini belgilovchi ko'rsatkich. O'zaro almashinuv – bitta tovar, jarayon yoki xizmat o'rniga boshqa tovar, jarayon yoki xizmatning yaroqliligi, bir xil talablarni bajarish maqsadida foydalanishi bilan aniqlanadi. Tovarlarining o'zaro almashinuvi ular o'rtasida raqobat bilan belgilanadi va ayni paytda bu shunga o'xshash ehtiyojlarni turli xil tovarlar bilan to'ldirish imkonini beradi. Tizimlash (sistematizatsiya) – bir xil, o'zaro almashinadigan tovarlar, jarayonlar yoki xizmatlarning muayyan izchilligini belgilashdan iborat ko'rsatkich. Tibbiy texnikaning behisob nomlari funksional maqsad-mohiyatga bog'liq holda quyidagicha tasniflanadi: asboblar, uskunalar, apparatlar, jihozlar. Tibbiy asboblar – tibbiyot xodimlari foydalanadigan, inson a'zolari va to'qimalarida muolaja ishlarini bajaradigan texnik vositalar. Tibbiy asboblar, asosan, ixtisoslashtirilgan korxonalarda nomenklatura bo'yicha tayyorlanadigan eng ko'p sonli tibbiy buyumlar guruhidir. Tibbiy asboblarni ko'p miqdorda ishlab chiqarish, asboblarning turli zamonaviy assortimentini ko'paytirish va kengaytirish yangi texnologiyalarning rivojlanishiga bog'liq. Tovarlar nomenklaturasida umumiy jarrohlik va maxsus (neyrojarrohlik, oftal'mologiya, abdominal jarrohlik va shu kabilar) operatsiyalarga mo'ljallangan jarrohlik asbob-uskunalar salmoqli o'rin tutadi. Tibbiy uskunalar (priborlar)– bemor holatiga oid ma'lumotni olish, tashhis qo'yish yoki me'yordan u yoki bu og'ishlarni belgilash imkonini beradigan qurilmalar. Uskunalar ko'rsatuvchi, qayd etuvchi, kombinirlangan bo'ladi. Ko'rsatuvchi uskunalar



1-TOM, 10-SON

o'lchanayotgan miqdorlarni ko'z bilan asbobning hisobraqam qurilmasi bo'yicha (tonometr, termometr) aniqlash mumkin bo'lgan moslamalardir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.N. Remizov. Tibbiy va biologic fizika. Ibn Sino nomidagi nashriyot. 1992. (2005) 615 s
2. Л.В.Осипов “Физико-технические проблемы ультразвуковой диагностики” //Медицинская техника. М. Медицина, 1991,№5.
3. Хакимов О.Ш., Латипов В.Б. Оценка неопределенности измерений. Учебное пособие. Ташкент, 2008.



1-TOM, 10-SON
AT “Aloqa bank” da inson resurslari menejment tizimining holati va
tahlili

TMCI iqtisodiyot fakulteti

O‘qituvchi Shodmonbekova Nodira Kamoljon qizi

Annotatsiya. Maqolada aksiyadorlik tijorat “Aloqabank”ning inson resurslari bo‘limi, hamda inson resurslari menejment tizimining holati va tahlillari keng yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar. Aloqabank, inson resurslari, menejment, tizim, bankning faoliyati.

Annotation. The article outlines the state and analysis of the department of human resources of joint stock commercial "Aloqabank", as well as the human resource management system.

Keywords. Aloqabank, human resources, management, system, bank activities.

KIRISH

Aksiyadorlik tijorat "Aloqabank" O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 12 oktyabr 1994 yil qarori bilan tashkil etilgan.

Hozirgi kunda bank:

- O'zbekiston Respublikasi banklar Assotsiatsiyasi a'zosi;
- O'zbekiston Respublikasi valyuta birjasi qatnashchisi;
- Fuqarolarning banklardagi "Omonatlarini kafolatlash jamg'armasi" a'zosi;
- “Toshkent” Respublika fond birjasi qatnashchisi;
- O'zbekiston umumdavlat to'lov tizimining a'zosi;
- SWIFT xalqaro to'lov tizimi a'zosi;
- VISA xalqaro to'lov tizimi a'zosi;
- O'zbekiston lizing beruvchilar Assotsiatsiyasi a'zosi;
- Sindikatli kreditlash tashabbus markazi a'zosi hisoblanadi.



1-TOM, 10-SON

AT Aloqabanki- bu O'zbekiston respublikasi qonunlariga muvofiq yuridik shaxs bo'lgan, O'zbekistonning yagona bank tizimining bir qismi bo'lgan va tijorat asosida ishlaydigan yopiq aksiyadorlik jamiyati. Oliy boshqaruv organi bank aksiyadorlarining yig'ilishi hisoblanadi. Bankning barcha operativ faoliyatini Direktorlar kengashi tomonidan tayinlanadigan Bank Boshqaruvi Raisi boshqaradi. AT Aloqabanki - bu eng keng mijozlarga yo'naltirilgan jahon darajasidagi xizmatlarni taklif qiluvchi yuqori ishonchlilik darajasiga ega, jadal rivojlanayotgan mustaqil moliya instituti. Hozirgi vaqtda AT Aloqabanki qarz oluvchilarning kredit qobiliyatini ehtimoliy baholash tizimidan foydalangan holda mijozlarning kredit tarixini yaratishda noyob tajribaga ega.

2021 -yil 1-yanvar holatiga bank filiallari tarmog'iga 13 ta filial, 77 ta xizmat ko'rsatish shoxobchalari, 73 ta omonat kassalari, 91 ta pul o'tkazmalari va 91 ta valyuta ayirboshlash shoxobchalari kiradi. 2021 -yil 1-yanvar holatiga bankning umumiy kapitali 1 568,5 milliard so'mni (149,7 million dollar) tashkil etdi. Kredit portfeli – 5 705,9 mlrd. so'm (544,6 mln. dollar).


2021 -yil 1-yanvar holatiga ko'ra , aktivlar 8 108,2 milliard so'mni (773,9 million dollar) tashkil etdi.

AT Aloqabankining asosiy faoliyati:

- tovar krediti;
- maqsadsiz kreditlar;
- kredit kartalarini chiqarish;
- depozitlarga jismoniy shaxslarning mablag'larini jalb qilish;
- aholini iste'mol kreditlash loyihasi bo'yicha hamkor kompaniyalarga kredit mahsulotlarini taqdim etish;
- moliya bozorlaridagi operatsiyalar.



1-TOM, 10-SON



AT Aloqabanki filialining birinchi guruhi o'rta va katta yoshdagi malakali ishchilardir. Ulardan bank sohasida 10 yildan 25 yilgacha ish stajiga ega 45-55 yoshli xodimlar, ayniqsa, samarali mehnat qilmoqda. Bular filial boshliqlari va yetakchi mutaxassislaridir. Ular buxgalteriya hisobining nozik tomonlarini va bank sohasidagi munosabatlarning nozik tomonlarini mukammal bilishadi. Ularning aksariyati o'rta maxsus, oliy moliyaviy ma'lumotga ega bo'lgan ayollardir. Birinchi bank guruhini tashkil etuvchi xodimlar mehnat sharoitidagi o'zgarishlarni, yangi bank ko'rsatmalarining oqimini va ish mazmunida noaniqlik mavjudligini qabul qilishda qiyinchiliklarga duch kelishadi. Ular yuqori mas'uliyatga ega, juda aniq va xatosiz ishlashga intiladi.¹

AT Aloqabanki filialining bank xodimlarining ikkinchi guruhi - bu bankka turli kasbiy va jamoat faoliyat sohaslaridan kelgan 35-45 yoshdagi faol mehnat yoshidagi odamlar: asosan iqtisodchilar va kompyuter olimlari. Ularning deyarli barchasi oliy ma'lumotli, yuksak intellektual salohiyati tufayli kasbini o'zgartirishga psixologik jihatdan tayyor. AT Aloqabankida, agar xodim bank sektoriga nisbatan asosiy bo'lmagan diplomga ega bo'lsa, ikkinchi iqtisodiy ma'lumot olish uchun shart qo'yiladi. Ushbu guruhdagi bank xodimlari yangi ish joyida professional va shaxsiy

¹ <https://Aloqabank.uz>



1-TOM, 10-SON

o'zini namoyon qilish, yangi professional aloqalarni izlash zarurati bilan duch kelishadi. Bu muammolar orasida qiyinchiliklar ham bor.

AT Aloqabanki filialidagi uchinchi guruhni 20-30 yoshdagi yoshlar tashkil etadi, ular bankda hisobchidan tortib to kassirgacha bo'lgan turli lavozimlarni egallaydi. Ular O'zbekistonda so'nggi yillarda iqtisodiy ma'lumotga ega yoki o'rta umumta'lim maktabini va maxsus bank kurslarini tamomlagan. Ushbu toifadagi xodimlar yangi iqtisodiy sharoitda o'zlarini ishonchli his qiladilar va bank xodimlarining ushbu guruhi eng gullab-yashnaganlari kabi taassurot qoldirishi mumkin.

Aloqabank tomonidan amalga oshirilgan HR rejalashtirish bosqichlari:

Aloqabank HR rejalashtirishning bir necha bosqichlarini bajaradi.² Bular:

1. HR rejalashtirishni korporativ rejalashtirish bilan integratsiyalash: HR rejalashtirishning birinchi bosqichi uni korporativ rejalashtirish bilan birlashtirishdir. Aloqabankida barcha xodimlarni rejalashtirish korporativ strategiya bilan bog'liq biznes-rejadan kelib chiqadi.

2. Ichki va tashqi muhitni bashorat qilish: Kadrlar resurslarini rejalashtirishning ikkinchi bosqichi Aloqabanki tomonidan bajariladigan ish kuchiga talab va taklifga ta'sir qiluvchi ichki va tashqi muhit omillarini bashorat qilishdan iborat. Ekologik omillarga hukumat kiradi. iqtisodiy, grafik va raqobat sharoitlariga ta'sir qiladi.

3. Kadrlar bo'limining ichki imkoniyatlarini baholash: Ushbu bosqichda Aloqabanki kadrlar salohiyatining ichki inventarizatsiyasini tahlil qiladi. Kadrlar resurslarini rejalashtirishning bir qismi sifatida ichki kuchli va zaif tomonlarni baholash joriy ishni va xodimlarning imkoniyatlarini tekshirishni va tashkiliy imkoniyatlarni inventarizatsiya qilishni talab qiladi.

² Inson resurslarini boshqarish: Butko E.Ya.: Ta'lim resurslari va texnologiyalari. 2016 yil. 5-nashr, 17-b



1-TOM, 10-SON

4. HR talab va taklifini bashorat qilish va prognoz qilish: Tashqi atrof-muhitni skanerlash va ichki kuchli va zaif tomonlarini baholash natijasida to'plangan ma'lumotlar banklarining maqsadlari va strategiyalari nuqtai nazaridan prognozli kadrlar bo'yicha talab va taklifni bashorat qilish uchun ishlatiladi.

5. Kerakli HRni topish uchun: HRga bo'lgan talab prognoz qilingandan so'ng, ularning mavjudligi aniqlanishi kerak. Ushbu bosqichda HR rejalashtirish zarur bo'lgan xodimlar mavjud bo'lgan manbani topiladi. Manba ichki yoki tashqi bo'lishi mumkin.

6. HR taqsimoti: Bu HR rejalashtirishning yakuniy bosqichidir. Bu vaqt o'tishi bilan tashkilot ichida inson resurslarini taqsimlash bilan bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. <https://Aloqabank.uz>
2. Abduraxmonov K.X, Xolmo'minov SH.R., Zokirova N.K. "Personalni boshqarish" Darslik. – T .:"O'qituvchi", 2019 .
3. Inson resurslarini boshqarish: Butko E.Ya.: Ta'lim resurslari va texnologiyalari. 2016 yil. 5-nashr ,17-b.
4. Ismadiyarov, Y., & Nabiulina, L. (2019, November). Informational ensuring innovative management of higher education system. In 2019 International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT) (pp. 1-5). IEEE.
5. Управление человеческими ресурсами: // Миронова Н.А., Гурьянов В.В., Клячин А.О.: 2020.
6. Obid Meliyev, & Kamola G'ofurova. (2023). ELECTRONIC COMMERCE AND ITS DEVELOPMENT STAGES IN PROVIDING DIGITAL ECONOMIC GROWTH. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8338578>



1-ТОМ, 10-СОН
**РОЛЬ МЕТАНОЛА В НЕФТЕГАЗОВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ И ЕГО
ВЛИЯНИЕ НА ГИДРАТЫ**

Мансуров Бехруз Акбарович,

Преподаватель

Бухарского колледжа нефтегазовой промышленности

Буранов Нуриддин Гафорович,

Преподаватель

Бухарского колледжа нефтегазовой промышленности

Саломатов Бехруз Тоймуродович

Преподаватель

Бухарского колледжа нефтегазовой промышленности

Шодиев Сабир Вахобжонович

стажер-преподаватель кафедры НМКТ Бухарского инженерно-
технологического института

Аннотация

Метанол, универсальное химическое вещество, играет жизненно важную роль в нефтегазовой отрасли, предотвращая и уменьшая образование гидратов, которые могут создавать серьезные проблемы в эксплуатации и безопасности. В этой статье исследуется значение метанола в решении проблем, связанных с гидратами, включая его уникальные свойства, применение и экологические соображения. Хотя метанол остается ценным ингибитором гидратообразования, в этой статье также освещаются текущие исследования альтернативных, более устойчивых решений для удовлетворения потребностей промышленности.

Ключевые слова: Метанол, нефтегазовая промышленность, гидратообразование, ингибирование гидратов, морские работы.

Abstract

Methanol, a versatile chemical, plays a vital role in the oil and gas industry by preventing and mitigating the formation of hydrates, which can pose significant operational and safety challenges. This article explores the significance of methanol in addressing hydrate-related issues, including its unique properties, applications, and environmental considerations. While methanol remains a valuable hydrate inhibitor, this article also highlights ongoing research into alternative, more sustainable solutions to meet industry demands.



1-TOM, 10-SON

Keywords: Methanol, Oil and Gas Industry, Hydrate Formation, Hydrate Inhibition, Offshore Operations.

Введение. Метанол, простой спирт с химической формулой CH_3OH , играет решающую роль в нефтегазовой промышленности как универсальный химикат, используемый для различных целей. Одной из его основных функций является предотвращение и смягчение последствий образования гидратов, которые являются распространенной проблемой при морском бурении и добыче. В данной статье исследуется значение метанола в нефтегазовом секторе и его влияние на гидраты.

Основная часть. Образование гидратов: постоянная проблема

Гидраты представляют собой кристаллические соединения, подобные льду, образующиеся при контакте воды и природного газа или других углеводородов при высоких давлениях и низких температурах. Они могут блокировать трубопроводы, оборудование и скважины, что приводит к серьезной угрозе безопасности и сбоям в работе. Образование гидратов особенно проблематично при морских и подводных операциях, где преобладают низкие температуры и высокие давления.

Роль метанола

Метанол, часто называемый метиловым спиртом или древесным спиртом, является ценным инструментом в борьбе с образованием гидратов. Его эффективность заключается в его уникальных свойствах:

1. Низкая температура замерзания. Метанол имеет температуру замерзания значительно ниже, чем вода, что делает его отличным ингибитором гидратообразования в холодных условиях. Впрыск метанола в трубопроводы и оборудование помогает снизить температуру замерзания воды, предотвращая образование гидратов.
2. Растворимость: Метанол хорошо растворим как в воде, так и в углеводородах, что позволяет ему диспергироваться по всей системе и эффективно сохранять свои антигидратные свойства. Эта растворимость помогает ингибировать



1-TOM, 10-SON

образование гидратов, разрушая границу раздела вода-углеводород, где гидраты имеют тенденцию образовывать зародыши.

3. Термодинамическое ингибирование. Метанол нарушает термодинамику образования гидратов, снижая активность воды в системе. Это, в свою очередь, смещает фазовое равновесие и тормозит рост кристаллов гидрата.

Применение метанола в нефтегазовой промышленности

Метанол находит ряд применений в нефтегазовой отрасли для предотвращения образования гидратов и обеспечения бесперебойной работы процессов бурения, добычи и транспортировки:

1. Закачка метанола: Метанол обычно закачивают в подводные трубопроводы и скважины для предотвращения образования гидратов. Обычно его смешивают с добываемыми жидкостями и закачивают с контролируемой скоростью для поддержания соотношения метанола и воды, которое препятствует образованию гидратов.

2. Пакеты ингибиторов гидрата метанола. Пакеты ингибиторов гидрата метанола разработаны для конкретных применений и часто адаптируются к условиям конкретной скважины или объекта. Эти пакеты гарантируют, что используется правильная концентрация метанола для предотвращения образования гидратов.

3. Удаление газовых гидратов. В тех случаях, когда гидраты уже образовались и вызывают закупорку, вводится метанол для диссоциации кристаллов гидрата. Этот процесс известен как восстановление газовых гидратов.

4. Установки осушки: Помимо ингибирования гидратов, метанол используется в установках осушки природного газа для удаления содержания воды из газового потока. Это помогает предотвратить образование гидратов и проблемы коррозии в оборудовании, расположенном ниже по потоку.

Соображения по охране окружающей среды и безопасности

Хотя метанол является ценным средством предотвращения образования



1-ТОМ, 10-СОН

гидратов, важно учитывать его экологические аспекты и аспекты безопасности. Метанол легко воспламеняем и связан с риском для здоровья при обращении с ним. Более того, это не является устойчивым долгосрочным решением из-за его токсичности и экологических проблем. Исследователи и представители промышленности изучают альтернативные, более экологичные варианты, такие как гликоли и заменители метанола, для решения этих проблем.

Заключение. Метанол играет ключевую роль в нефтегазовой отрасли, предотвращая и смягчая образование гидратов, что является распространенной проблемой при морских и подводных операциях. Его уникальные свойства, такие как низкая температура замерзания и высокая растворимость, делают его эффективным ингибитором гидратообразования. Однако отрасль также активно исследует альтернативные и более устойчивые решения для решения проблем окружающей среды и безопасности, связанных с метанолом. Поскольку этот сектор продолжает развиваться, роль метанола в управлении гидратами останется важнейшим элементом обеспечения безопасности и эффективности нефтегазовых операций.

Библиография

1. Sloan Jr, E. D. (2003). Clathrate Hydrates of Natural Gases (3rd ed.). CRC Press.
2. Mokhatab, S., Mak, J. Y., & Valappil, J. V. (2019). Handbook of Natural Gas Transmission and Processing. Gulf Professional Publishing.
3. Xu, J., & von Solms, N. (2017). Hydrate Inhibition in Oil and Gas Industry: Recent Advances and Challenges. *Industrial & Engineering Chemistry Research*, 56(7), 1561-1574.
4. Todd, A. C., & Moridis, G. J. (2010). Methanol Injection to Prevent Hydrate Plug in Deepwater Drilling and Production. *Offshore Technology Conference*.
5. Wright, W. R., & Oyenekan, B. A. (2011). Developments in Methanol Injection Systems for Subsea Applications. *Offshore Technology Conference*.



1-TOM, 10-SON

Рақамли иқтисодиёт шароитида ўқувчиларни замонавий касбларга
йўналтириш истиқболлари

Н.Рахимов

Осиё Халқаро Университети магистранти

Бугунги кунда мамлакатимизда замонавий технологияларга асосланган рақамли иқтисодиётнинг жадал ривожланиши ахборот-коммуникация технологиялари соҳасида юқори малакали дастурчи ва мутахассисларни тайёрлаш тизимини такомиллаштириш долзарб муаммо сифатида қаралмоқда. Республикамизда умумтаълим мактаблари ўқувчиларини ахборот-коммуникация технологиялари соҳасига бўлган қизиқишини янада ошириш, ўқувчиларда замонавий рақамли технологиялар, дастурлаш асослари, электрон тижорат йўналишларини ўргатиш учун қулай шарт-шароит яратиш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 31 августдаги “IT-технологиялар ва компьютер дастурлаш соҳасида ёш мутахассисларни рағбатлантириш бўйича кўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 556-сон қарорида IT-технологиялар ва компьютер дастурлаш соҳасида ёш мутахассисларни тайёрлаш, шунингдек, уларни кейинчалик ишга жойлаштиришда кўмаклашиш, илғор IT-компаниялар билан ҳамкорлик ўрнатиш назарда тутилган. Ушбу белгиланган вазифаларни амалга оширишда қуйидаги дидактик жараёнларни амалга ошириш мақсадга мувофиқдир.

Биринчидан, ўқувчиларни IT-технологиялар ва компьютер дастурлаш соҳасидаги касбларга мақсадли ва манзилли йўналтириш самарадорлигини таъминлашга қаратилган ахборот-дидактик таъминот платформаси яратиш;

Иккинчидан, “Бир миллион дастурчи” лойиҳасини мактаб ўқув дастурларига интеграция қилиш орқали ўқувчиларга IT-технологиялар ва компьютерда дастурлаш асосларининг чуқур ўргатилишини ташкил этиш;

Учинчидан, ўқувчиларни IT-соҳасидаги касбларга ўқитиш ва билимларини баҳолашнинг замонавий услубларини жорий қилиш, рақамли ўқув воситалари ва масофавий таълим шаклини кенг қўллаш;

Тўртинчидан, ўқув дастурларининг рақамли иқтисодиёт талабларига мослашишини таъминлаш ва бу борада таълим ҳамда илмий-тадқиқот муассасалари, давлат идоралари ва тармоқ корхоналари билан ҳамкорликни ривожлантириш;

Бешинчидан, ўқувчиларнинг дастурий маҳсулотлар ва ахборот технологиялари, IT-парклар фаолияти билан яқиндан таништириш кабилар



1-TOM, 10-SON

ушбу белгиланган вазифаларни амалга ошириш орқали қуйидаги имкониятлар яратилади. Жумладан:

- IT-паркларнинг стратегик режалари асосида ўқувчиларни ахборот-технологиялар соҳасидаги касбларга мақсадли йўналтириш халқаро тажрибалар асосида такомиллаштирилади;

-Ўқувчиларни ахборот-технологиялар соҳасидаги касбларга мақсадли йўналтириш тизимини илмий асосланади ҳамда ишлаб чиқилган дастурий таъминот амалиётга жорий этилади.

-Ривожланган давлатларнинг ўқувчиларни ахборот-технологиялар соҳасидаги касбларга мақсадли йўналтиришдаги илғор халқаро тажрибаларини амалиётга жорий этиш натижасида халқаро меҳнат бозори билан алақадорликни таъминлаш имкониятини яратади.

-Ўқувчиларини ахборот-технологиялар соҳасидаги касбларга мақсадли йўналтиришдаги ижтимоий-иқтисодий, педагогик ва амалий асослари такомиллаштирилади;

-Рақамли иқтисодиётнинг ривожлантириш кўрсаткичлари асосида ўқувчиларни ахборот-технологиялар соҳасидаги касбларга мақсадли йўналтириш тизимини илмий асосда йўлга қўйиш, тизимни амалга ошириш механизмнинг яратилиши ўқувчиларнинг бандлигини таъминлаш ва ишлаб чиқаришдаги кейинги фаолиятини мониторинг қилиш имконияти беради.

Шунингдек, рақамли иқтисодиётнинг ривожлантириш кўрсаткичлари асосида ўқувчиларни ахборот-технологиялар соҳасидаги касбларга мақсадли ва манзилли йўналтиришдан асосий мақсад ҳар бир ўқувчининг IT-паркларнинг мақсадли дастурлари асосида шахсий сифатлари, қизиқиш, қобилият, мойилликларини уйғунлаштириш ва меҳнат бозорининг талабларига ҳамда ахборот технологиялари соҳасини онгли равишда танлаш кўникмаларини шакллантириш имкониятини яратади. Шу нуқтаи назардан, иқтисодий ривожланишда жаҳонда ўз ўрнига эга бўлиб бораётган республикамизда иқтисодиётга инновацион IT-технологияларни жалб қилиш, ҳудудларнинг инфраструктурани шакллантириш, жалб қилинаётган инвестициялар ва амалга оширилаётган лойиҳалар орқали ҳудудларда техник-технологик ривожланишни жадаллаштириш, аҳолининг бандлигини таъминлаш, камбағалликни қисқартиришда умумий ўрта таълим ўқувчиларини меҳнат бозори талаблари асосида замонавий касбларга йўналтириш муҳим аҳамиятга эгадир.





1-TOM, 10-SON

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 31 августдаги “IT-технологиялар ва компьютер дастурлаш соҳасида ёш мутахассисларни рағбатлантириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 556-сонли Қарори.
2. Г. И. Хорват, О. В. Бибикова Организация профессионального самоопределения. Научно-метод. электр. журнал Концепт. – 2015. – №26. – С. 241-245.
3. Бегимкулов У.Ш. Педагогик таълимда замонавий ахборот технологияларини жорий этишнинг илмий–назарий асослари. Монография. – Т.: Фан, 2007. – 160.



1-ТОМ, 10-СОН

Симуляцион таълимнинг тарихий ривожланиши

Ш.Б.Жонибеков

Осиё Халқаро Университети магистранти

Халқаро таълим амалиётида таълим олувчилар эгаллаган билим, кўникма ва малакаларини бевосита кундалик ҳаётида қўллашга ўргатадиган компетенциявий ёндашувга асосланган таълим дастурларини яратиш ва амалиётга тадбиқ этиш заруриятини юзага келтирди. Бу аввало, халқаро тажрибалам келиб чиққан ҳолда узлуксиз таълим тизимида компетенциявий ёндашувга асосланган таълим стандартлари, ўқув дастурлари ва ўқув режалари яратиш, компетенциявий ёндашув асосида ўқитиш технологиялари ва баҳолаш мезонларини ишлаб чиқишни тақоза қилмоқда. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сонли “2022-2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги фармонида жаҳон миқёсидаги мураккаб жараёнларни ва мамлакатимиз босиб ўтган тараққиёт натижаларини чуқур таҳлил қилган ҳолда халқимизнинг фаровонлигини янада ошириш, иқтисодиёт тармоқларини трансформация қилиш ва тадбиркорликни жадал ривожлантириш устивор вазифа сифатида белгиланган. Шу нуқтаи назардан, дунё таълимида таълим технологияларини ривожлантиришга йўналтирилган илмий тадқиқотлар таҳлилида тиббиёт, ветеринария, автотранспорт каби соҳаларда мутахассис тайёрлаш жараёнига симуляцион-имитацион ўқитиш технологияларини қўллаш таълим мазмунини ўзлаштиришнинг самарадорлигини таъминлади. **Симуляцион таълим** - ўзига хос таълим технологияси бўлиб, унда реал ҳаётнинг воқеликка яқинлаштирилган ҳолда сунъий равишда ташкил этилган муҳитда таълим олувчиларнинг амалий кўникмаларни шакллантириш ва ривожлантириш кўзда тутилади. Тиббий таълим соҳасида симуляцион технологияларга оид илк тадқиқотлар буюк қомусий аждодимиз Ибн Сино таълимотига бориб тақалади. Улуғ мутафаккир олим суяк парчаланиши ва синишини даволашни ўргатишда симуляцион таълимнинг илк оддий лекин самарали методикасини қўллаган, яъни ушбу методика шундай иборат бўлганки унда мато халтачадаги бўлақларга бўлинган (синдирилган) сопол кўзани қайта йиғиш жараёни машқ қилинганлигини кўриш мумкин. Кейинчалик, XVIII асрда Францияда Мадам дю Кудрэ (Angélique du Coudray) акушерликка ўқитиш курслари учун махсус симулятор яратган. XIX асрга келиб, Японияда тиббий симуляцион манекенлар пайдо бўлади. Шундан сўнг, ушбу тадқиқот объекти тиббий таълимни ривожлантиришнинг устивор





1-TOM, 10-SON

йўналиши сифатида қаралиб, халқаро илмий марказлар томонидан ривожлантирилган. Жумладан: 1960-90 йилларда АҚШ ва Норвегия олимлари Питер Сафар, Майкл Гордон, Дэвида Габалар томонидан янги симуляцион ўқитиш технологиялари ривожлантирилган ҳамда янги симуляцион ускуналар яратилган. 1992 йилда Гарвард тиббиёт мактабида (Бостон, АҚШ) “Буюк симуляцион тажриба” (The Great Simulation Experiment) ўтказилган ва тиббиёт соҳасида симуляцион ўқитишнинг самарадорлиги амалий исбот қилиб берилган.

Тарихий тараққиётнинг ривожланиши негизда симуляцион ўқитиш тиббиёт соҳасида ривожланиши асосида таълим соҳасида ҳам симуляцион ўқитиш технологиялари жадал кириб келди. Техника соҳасида эса дастлабки симуляцион ўқитиш усуллари мураккаб техник воситаларни бошқаришга ўргатиш жараёнига тадбиқ этилган. Жумладан, 1909 йилда илк симулятор қурилмаси “Антуанетта” самолётини бошқаришни ўргатиш мақсадида махсус симуляцион тренажёр ўқитиш воситаси сифатида яратилган. Техник соҳада (катта йўқотишлар, талофатлар келтирадиган соҳаларда хатосиз ишлаш принциплари асосида амалга ошириладиган жараён) симуляцион тренажерлар космонавтика, самолёт, кемалар, металлургия, ҳарбий техника бошқариш ва бошқа турдаги техник воситалардан фойдаланишни ўргатиш курсларида муваффақиятли қўлланиб келинмоқда. Таълим олувчиларни бизнес ва тадбиркорликка ўрганишда асосан анъанавий ўқитиш усуллари қўрилган натижаларни бермаяпти. Шунинг учун ҳам таълим олувчиларни реал шарт-шароитлари мавжуд бўлган жараённинг бевосита иштирокчиси бўлиши, кўз билан кўриши, қўл билан ушлаши, жараённи бошқариши, синаб кўриши, хатоларни тузатиш имкониятининг яратилганлиги таълим олувчиларнинг таълим мазмунини тўлиқ ўзлаштиришлари учун асос бўлади, таълимни амалиёт билан максимал даражада яқинлаштириш имконини беради.

Симуляцион ўқитиш жараёнини ташкил этиш ўзига хос мураккаб жараён бўлиб, бунда махсус тайёргарликдан ўтган мутахассисларни тайёрлаш, уларнинг амалий касбий фаолиятларида таълим олувчилар билан ҳамкорлигини йўлга қўйиш, ҳар хил вазиятлар учун имитацион сценарийлар ишлаб чиқиши, имитацион технологиялар, симуляцион муляжлар, ишлаб чиқариш ускуналари прототипларини яратиш, ўқув воситалари билан ишлаш жараёнида техника хавфсизлик қоидаларини таъминлаш талаб этилади. Бунда симуляцион таълимда таълим олувчи ўрганиб тажриба орттириш талаб



1-TOM, 10-SON

этиладиган амалий машғулотлар дастурини шакллантиришдан тортиб, таълим олувчиларда амалий кўникмаларни шакллантиришга қаратилган моддий техник база яратиши лозим.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Симуляционное обучение в медицине / Сост. Горшков М. Д., под ред. Свистунова А. А.-М.: Изд-во Первого МГМУ им. И. М. Сеченова, 2013 .-287
- 2..М.Д.Горшков, А.Л.Колыш. История симуляционного обучения в России и зарубежом.
- 3.Cyberleninka.ru/article/n/istoriya-simulyatsionnogo-obucheniya-v-rossii-i-zarubezhom/viewer
- 4.R.Samaha. Simulation-based healthcare education. Does it yield some results. Concordia University 2012.



1-TOM, 10-SON

**Олий таълим тизимида кредит модуль тизimini жорий қилиш борасида
илмий мулоҳазалар**

Илхом Қиличев

Тошкент фарматсевтика институти академик лицейи директори

ilkhomqilichev@gmail.com

Республикамизда кадрлар тайёрловчи олий таълим муассасалари фаолиятини тизимли ривожлантириш, илғор хорижий тажрибаларни жорий қилган ҳолда замонавий таълим дастурларини ишлаб чиқиш, юқори малакали профессионал кадрлар тайёрлашни янги босқичга кўтариш ҳамда соҳада таълим, илм-фан ва амалиёт уйғунлигини таъминлаш масаласига ҳукуратимиз томонидан алоҳида эътибор қаратилмоқда.

Айни пайтда Ўзбекистон олий таълим тизimini ислоҳ қилиш жараёнида миллий малака рамканинг жорий этилиши олий маълумотли кадрлар тайёрлашда янги даврни бошлаб берди.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизimini 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида” ПФ-5847 сонли Фармони¹га мувофиқ Олий ва ўрта махсус таълим вазирлигининг 2020 йил 30 июндаги 357-сонли буйруғи²га асосан 2020-2021 – ўқув йилидан республика олий таълим муассасалари кредит-модуль тизимига ўтди.

2020 йилда қабул қилинган “Илм, маърифат ва рақамли иқтисодиётни ривожлантириш йили” давлат дастурида³ олий таълим билан қамров даражасини босқичма-босқич ошириб бориш, фанларни оптималлаштириш, мутахассисликка алоқаси бўлмаган фанлар сони 2 баробарга қисқартириш, олий таълимда ўқув жараёнини кредит-модуль тизимига ўтказиш, олий таълим муассасаларига академик ва молиявий мустақиллик бериш масалаларига алоҳида эътибор қаратилди.

Бугунги кундаги ислохотлар, ўқув-меъёрий хужжатларнинг янги авлодини яратиш, талабанинг меҳнат интенсивлигини ҳисобга олиш, битирувчиларнинг

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябр «Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизimini 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида»ги ПФ-5847-сонли Фармони.

² Олий ва ўрта махсус таълим вазирлигининг 2020 йил 30 июндаги 357-сонли буйруғи

³ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 02 мартдаги ПФ-5953-сон Фармони.



1-TOM, 10-SON

академик ва касбий мослашувчанлигини ривожлантириш, билимларни ўзлаштиришнинг интензив усуллари жорий этишда кредит-модуль тизимини жорий этишни ўз ичига олади.

Шуни таъкидлаш кераки, кредит-модуль тизимининг жорий этилиши профессор-ўқитувчиларнинг меҳнати ва ўқув жараёнининг интенсивлигини сезиларли даражада яхшилади ва олий таълимнинг халқаро алмашинувлар учун шаффофлигини оширади. Бироқ, кредит тизимига ўтиш маълум бир муддатни талаб қилади, чунки кредитлар тўплаш тизими барча турдаги ўқув жараёни, шу жумладан аудитория юкини, амалий машғулотларни, лаборатория ва илмий-тадқиқот ишларини, турли сертификатланадиган жараёнларни қамраб олиши керак.

Халқаро тажрибага кўра, кредит-модуль тизимида ўқув жараёни ҳар семестрда 2-4 тагача модулдан ташкил топади. Модулда жамланган фанлар осондан мураккаблик сари, назарий-услубий фанлардан амалий фанларга қараб ҳамда мантиқий жиҳатдан бир-бирини ўзаро узвий тўлдириш принципи асосида шакллантирилади. Талаба мутахассис бўлиб шаклланиши учун нафақат соҳага таълуқли ахборотлар, балки уларни қайта ишлаш, ишлаб чиқариш амалиётига жорий қила олиш малакасига эга бўлиши талаб этилади.

Модулга асосланган ўқув дастурлари махсус схема асосида ишлаб чиқилади ва қуйидагиларни ўз ичига қамраб олади:

- ❖ ўқув мақсади ҳамда вазифаларнинг тўлиқ очиб берилиши;
- ❖ талабанинг фанни (курсни) бошлаши ва тугатишидан кейинги орттириши лозим бўладиган билим ва малакасига қўйиладиган талаблар;
- ❖ модул таркибига кирган ҳар бир фаннинг қисқача мазмуни (силлабус), яъни маърузалар мавзулари, семинар ва амалий машғулотларнинг режаси, мустақил таълимни баҳолаш учун мўлжалланган топшириқлар;
- ❖ ўқитишнинг қисқача баёни: таълим бериш усул ҳамда воситалари; билимларни баҳолашнинг усул ва шаклларида иборат.

Республикамизда педагогика соҳасида кадрлар тайёрловчи олий таълим муассасалари фаолиятини тизимли ривожлантириш, илғор хорижий тажрибалар асосида замонавий таълим дастурларини ишлаб чиқиш, юқори малакали профессионал кадрлар тайёрлашни янги босқичга кўтариш ҳамда соҳада таълим, илм-фан ва амалиёт уйғунлигини таъминлаш масаласи педагог кадрлар тайёрлаш борасида муҳим ўрин тутмоқда.



1-TOM, 10-SON

Хукумат даражасида педагог кадрлар тайёрлаш масаласига алоҳида эътибор қаратилаётганлиги, бу соҳадаги ислохотларнинг устувор сиёсат сифатида белгиланишини ҳамда олий маълумотли кадрлар тайёрлаш тизимини мазмунан тубдан қайта кўриб чиқишни тақозо қилади.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 21 июндаги “Педагогик таълим сифатини ошириш ва педагог кадрлар тайёрловчи олий таълим муассасалари фаолиятини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида” 289 сонли қарори⁴ қабул қилинди. Қарорга мувофиқ олий таълим таълим мазмунини тубдан такомиллаштириш, бунда педагог кадрлар тайёрловчи олий таълим муассасаларининг таълим дастурларини Миллий малака рамкаси ҳамда Таълимни халқаро стандарт классификатори (МСКО-2011) талабларига мослаштириш, педагог кадрлар тайёрловчи олий таълим муассасалари ўртасида академик мобилликни йўлга қўйиш учун уларнинг ўқув режалари ва таълим дастурларини бир-бирига мувофиқлаштириш топшириғи берилди.

Олий таълимда педагог кадрлар тайёрлаш жараёнида таълим дастурлари, ўқув режалар ва улардаги ўқитиладиган фанлар замонавий дидактик воситалар, илғор методикалар, моддий техника базаси, таълим ва ишлаб чиқариш уйғунлиги асосида амалиётларнинг ташкил этилиши, педагогларнинг ишлаб чиқариш объектидаги вазифасига кўра талаб этиладиган компетенцияларга эга бўлишини тақозо қилади.

Демак, олий таълим муассасаларида таълимни - касбий стандарт талаблари ва халқаро стандарт классификациясига мувофиқ такомиллаштириш ҳамда таълим сифатини яхшилаш талаб этилади.

Халқаро стандартлар асосида педагог кадрлар тайёрлаш тизимини такомиллаштириш, МСКО-2011 (МСКО-2013) ни тизимга тўлиқ татбиқ қилиш, Миллий малака рамкаси асосида педагогика соҳасининг ўқув режа ва фан дастурларини (силлабус) такомиллаштириш, академик мобилликни таъминлаш, кадрлар буюртмачилари талабларига асосланган таълим дастурларини яратиш муҳим ўрин тутди⁵.

⁴ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 21 июндаги “Педагогик таълим сифатини ошириш ва педагог кадрлар тайёрловчи олий таълим муассасалари фаолиятини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида” 289 сонли қарори.

⁵ Болонскому процессу в России быть! или казаться? // Деловой мир, 18.12.2007 Давыдов Ю.С. Болонский процесс и российские реалии. М., 2004. С. 62.



1-TOM, 10-SON

Кадрлар тайёрлаш жараёнида таълим дастури – олий таълим босқичининг асосий меъёрий ҳужжати ҳисобланиб, таълим мазмуни (малака талаби), ҳажми (ўқув режа), босқичларнинг натижаси (баҳолаш мезони), ташкилий-педагогик шарт-шароитлари (амалиёт, стажировка), синов шакллари (синов, аттестация, битирув малакавий иш ҳимояси) қамраб олган олий таълим битирувчисига қўйиладиган комплекс талаблар мажмуини ишлаб чиқиш, касбий стандартга мувофиқ касбга қўйиладиган функциялар ва талаблар асосида олий таълим босқичлари ҳамда даражалари учун ишлаб чиқиш.

Ишлаб чиқиладиган таълим дастури бериладиган малака мазмунини, мақсадини, вазифасини, ташкилий ўқув жараёнини ва натижаларини режалаштириши лозим. Санитар норма талаблари ва тартибига мувофиқ малака рамка, тармоқ рамка ва касбий рамка бўйича бериладиган малака босқичи ва даражалари учун татбиқ этилади.

Бугунги кунда аксарият хорижий олий таълим муассасаларида педагогика соҳасида кадрлар тайёрлаш даврийлиги уч йилни ёки олти семестрни ташкил қилади.

Республикамиздаги олий таълим муассасаларида эса асосан 4 йил ёки 8 семестрлик педагог кадрлар тайёрлаш стандартларидан фойдаланилмоқда. Олий таълим тизимида кредит модульга асосланган 4 йиллик таълим жараёнини ташкил қилинишида ютуқлар билан бирга олдимизда бир қатор вазифалар ҳам турибди.

4 йиллик олий таълим ўқув режасида мажбурий ва танлов фанлари блокида танлов фанлари қўшимча квалификация бериш сифатида тушинилмоқда. Аслида малака рамкасига мувофиқ танлов фанлари кадрлар буюртмачисининг талаби асосида ташкил қилинадиган жараён ҳисобланиб, қўшимча квалификация талабларининг киритилиши, кадрлар буюртмачисининг ихтисослик доирасида битирувчида шаклланиши лозим бўлган малакани англатади.

Илғор хорижий тажрибаларга кўра амалда (Германия, Финляндия, Корея) 3 йиллик бакалавриат ва 2 йиллик магистратура таълим дастурларида модуллар, фанлар, фанга берилган кредит ва малакага қаратилган талаблар, давомилийги аниқ белгилаб берилган⁶.

⁶ Usmonov B.Sh, Xabibullaev R.A. Oliy o'quv yurtlarida o'quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish. O'quv qo'llanma. T.: «Tafakkur» nashriyoti, 2020 y. 126 bet.



1-TOM, 10-SON


Ўқув жараёнини ташкил қилишда модулларга асосланган ўқитиш амалиётига амал қилиниб, ўқитиладиган фанлар хусусиятига кўра семестрларга ажратилган. Семестрлар кадрларга қўйиладиган талабларга мувофиқ шакллантириладиган компетенциялар модулларда ифодаланади. Бунда, педагогга қўйиладиган компетенция талабларидан келиб чиқиб бутун ўқиш даври учун 5 ёки 6 та модуллардан иборат бўлади. Модулларни хусусиятига кўра ўқитиладиган фанлар каталоги шакллантирилади. Кредит модуль тизимида назарий ва мустақил таълим соатлари меъёрларга мувофиқ белгиланган ҳолда топшириқ мазмуни аниқ белгилаб олиниш лозим. Буна фан доирасида олинган билим амалий дарслар билан уйғун ҳолда кўникмага айлантириш ва амалиёт машғулотида малакани шакллантиришга қаратилади.

Ҳар бир курс ва семестр талабага қўйилган малака талабларидан келиб чиқиб ўқитилади. Бунда назарий таълим, амалий кўникмалар ва малакага қараб боради.

Магистратуранинг ўзига хос хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда назарий, амалий ва касбий кўникмаларни шакллантиришга алоҳида эътибор қаратиш лозим. Бунда педагогик назарий ва амалий кўникмалар, методик воситага айланиши ва битирувчида малака ҳосил бўлишига қаратилиши лозим.

Педагогика соҳасида кадрлар тайёрлаш талабаларни юкламасини белгилашда оддийдан мураккабга ва мураккабликдан оддийликка қараб шакллантириш мақсадга мувофиқ. Бунда, фанлар мазмунидан оддийдан мураккабга қараб боради, талабага қўйиладиган назарий юкламалар мураккабликдан оддийлик қараб боради. Бугунги илғор давлатлар тажрибасида ҳам буни кўриш мумкин. Талабага семестр якунида мустақил изланиши учун кўпроқ вақт қолдирилиши, ўқув жараёни графигида алоҳида вақт бериш тажрибасини қўлламай амал қилиш имкониятини беради.

Семестрда талаба юкламасининг тақсимои модели



1-TOM, 10-SON

Хулоса қилиб айтадиган бўлсак: Кредит тизимида энг аввало талабанинг мустақил ишига жиддий эътибор қаратиш керак.

Кредит бу баҳо эмас, балки иш ҳажми ҳисобланади. Кредит таълим тизимида ўқув ишлари ҳажми ўқитиладиган материал ҳажми бўйича аниқланади ва кредитларда ўлчанади.

Барча турдаги амалиётлар ва диплом ишлари, қўшимча фанлар таълим дастури доирасида амалга оширилади ва умумий кредитлар ҳисобига киритилади.

Ҳар қандай ўқув жараёни асосида талабанинг шахсий ўқув режаси ётади. Шахсий ўқув режаларида меҳнат бозорининг эҳтиёжлари, иш берувчиларнинг талаблари ва талабаларнинг қизиқишлари акс эттирилиши лозим.

Кредит таълим тизимида фаолият юритаётган олий ўқув юрти ўз талабаларига Давлат таълим стандартлари ва малака талаблари доирасида мутахассислик фанларини ўзлаштиришлари ҳамда ўқишни муваффақиятли яқунлаб академик даража олишлари учун максимал даражада қулай шароитлар яратиши лозим.

Фойдаланилган адабиётлар ва манбалар

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябр «Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида»ги ПФ-5847-сонли Фармони.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 02.мартдаги ПФ-5953-сон Фармони.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 21 июндаги “Педагогик таълим сифатини ошириш ва педагог кадрлар тайёрловчи олий таълим муассасалари фаолиятини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида” 289 сонли қарори
4. 2020 йилда қабул қилинган “Илм, маърифат ва рақамли иқтисодиётни ривожлантириш йили” давлат дастури.
5. Олий ва ўрта махсус таълим вазирлигининг 2020 йил 30 июндаги 357-сонли буйруғи.
6. Усмонов Б.Ш, Хабибуллаев Р.А. Олий ўқув юртларида ўқув жараёни кредит-модул тизимида ташкил қилиш. Ўқув қўлланма. Т. «Тафаккур» нашриёти, 2020 й. 126 бет



1-TOM, 10-SON
Maqsud Shayxzoda

Abdullayeva Nurjamal Abibulla qizi

Toshkent davlat transport universiteti Iqtisodiyot fakulteti AT-4

+998977698118

nurjamalabdullaeva003@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada shoir Maqsud Shayxzodaning xalq qalbidan joy olgan sermahsul ijodi va uning o'zbek milliy madaniyatida tutgan o'rni haqida mushohada yuritiladi. Shoir she'rlarida Ona Vatan, Tinchlik, Samimiylik, Tinchlik, Mehnatsevarlik mavzularining aks etishi uning jozibali misralari orqali tahlil qilinadi. O'zbek adabiyotida shoirning o'rni va nufuzi juda baland ekanligi ko'rsatiladi hamda shoir she'rlariga bugungu kundagi ijtimoiy-ma'naviy ehtiyojning mavjudligi asoslanadi.

Kalit so'zlar: Maqsud Shayxzoda she'riyati, dramaturgiya, tragediya, badiiy ijod, harbiy lirika, vatanparvarlik, "Mirzo Ulug'bek", intim lirika, intellectual lirika.

Annotation. This article discusses the poet Maqsud Shaykhzoda's prolific work in the hearts of the people and his role in the Uzbek national culture. The poet's poems reflect the themes of Motherland, Peace, Sincerity, Peace, and Diligence, which are analyzed through his captivating verses. The role and prestige of the poet in Uzbek literature is very high, and the poet's poems are based on the existence of today's socio-spiritual needs.

Keywords: Maqsud Shaykhzoda's poetry, drama, tragedy, literatur, military lyrics, patriotism, "Mirzo Ulug'bek", intimate lyrics, intellectual lyrics.

KIRISH

Maqsud Shayxzoda 30-yillarda xilma-xil she'rlar yozish bilan birga, "Meros", "O'rtoq", "Chiroq", "Tuproq va haq" singari dostonlar ham yaratdi.

Maqsud Shayxzodaning "Kapitan Gastello", "Qondoshlik", "Yo'q, men o'lgan emasman", "Chorak asr" kabi she'rlarida ham urush va tinchlik, o'lim va hayot, do'stlik va qahramonlik, yovuzlik vat inch insoniylik haqidagi muhim poetik fikrlar mohirona ifodalangan. "Kapitan Gastello" she'rida shoir jangda mardligini ajoyim namunasini ko'rsatga uchuvchi GASTello jasoratini chuqur ehtiros va samimiy ixlos bilan tasvirlab haqiqiy vatanparvar jangchilarning yorqin obrazini yaratdi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR



1-TOM, 10-SON

